Хорижлик олимлар томонидан психологик хизмат бўйича қуйидаги йўналишларда илмий изланишлар олиб борилмоқда: таълим тизимида психологик хизмат (K.R.Reynolds, T.B.Gutkin), психологнинг профессионал функцияларини асослаш (Bardon, Bennet), ақлий тараққиётдан орқада қолган болалар учун дастур ва тест (Binet, Simon), психологик-педагогик ёрдам гуруҳлари (A.Vallon), ўқувчиларнинг психик соғломлиги (Luy Somin) шахсларнинг ўз ишидан қониқишини таъминлаш.

Психологик хизмат ва унинг ташкил қилиниши ҳамда ривожланишига таъсир этувчи психологик механизмлар ижтимоий психологиянинг методологик тамойилларини такомиллаштириш муаммоси А.Г.Асмолов, Ш.А.Надирашвили, Д.Н.Узнадзе, Г.М.Андреева, Ю.М.Забродин, К.А.Абулхонова-Славская, Е.А.Ануфриев, Л.П.Гримак, Б.Ф.Ломов, Н.С.Лейтес, Э.А.Голубева, Л.И.Божович, А.А.Братколар томонидан психологик хизматнинг шахс ва фаоллик тамойилига адекват ёндашув муаммоси билан боғлиқ тадқиқотлар олиб борилган.

Бугунги кунда бир қатор хорижий мамлакатлар, жумладан, АҚШ, БАА, Европа, Осиё ва МДХ олий таълим муассасалари тажрибаларини ўрганиш орқали уларнинг илғор тажрибаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ, хусусан:

клиник психология, идрок ва хулқ-атвор психологияси (Cognition, Brain, & Behavior), хизмат психологияси (Психология служебной деятельности), суд эсперт психологияси (Судебно-психологическая экспертиза), криминология (Криминология), Юридик психология (Юридическая психология) соҳасидаги ютуқларни ўрганиш;

ривожланган Осиё ва Европа мамлакатларида Патапсихологияга (Abnormal Psychology) эътибор қаратилган ва алоҳида ўқув дастурларини ўрганиш ва мослаштирилган ҳолда амалиётга татбиқ этиш;

“Болаларни мактабгача бўлган давр ривожланишини”, “Идрок, Онг ва хулқ-атвор”, Когнитив ва ижтимоий неврология” соҳасидаги тажрибаларни ўзлаштириш;

“Аҳоли бахтлилик даражаси”, “Соғлиқни сақлаш хусусан ментал саломатлигини”, “Стрессдан ҳимояланиш” тадқиқотларини ўрганиш орқали мавжуд муаммоларни ҳал этиш ҳамда таълим йўналишларига янги фан, ўқув курслари жорий этилган;



2-TOM, 2-SON

Саломатлик психологияси бўйича жаҳоннинг етакчи олий таълим муассасалари ва илмий марказлари, жумладан, Санкт-Петербург Давлат университети (Россия), Россия фанлар академияси социология институти (Россия), University of California (Los Angeles, АҚШ), University of Leeds, University of Kent ва The University of Sheffield (Буюк Британия), University of Groningen (Нидерландия), Freie Universität Berlin (Германия), World Health Organization, The British Psychological Society (Буюк Британия), The European Health Psychology Society, American Psychological Association (АҚШ) томонидан изланишлар олиб борилмоқда;

АҚШ, Буюк Британия, Россия, Германия ва Исроил давлатларида психодиагностика, психопрофилактика ва консультация соҳаси билан боғлиқ хизматлар асосий ўринда туради;

Халқаро тест маркази (ИТС), Танлаш ва тараққиётни баҳолаш маркази (SVDAC) кадрларни саралаш ва психологик баҳолаш йўналишида, Иматон” (Россия), “Индиго” тест тузиш ва онлайн тестлаштиришни жорий этиш маркази (Россия) ва Питсбургск консультация фирмаси (АҚШ) психологик тадқиқотлар учун психологик тестларни ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш бўйича изланишлар олиб борилмоқда;

Ривожланган Осиё ва Европа мамлакатларида ҳаёт фаолиятида оғир психологик ҳолатларга тушиб қолган аёлларга алоҳида эътибор қаратилган ва тренинг-реабилитация дастурлари ишлаб чиқилган;

Халқаро тажрибаларга кўра жаҳоннинг етакчи мамлакатларида психологлар фаолиятининг тартибга солиш ва такомиллаштиришга хизмат қиладиган Америка психологлар ассоциацияси (АРА), Британия психологлар жамияти (BPS), Психологлар ассоциацияларининг Европа федерацияси (EFPA) каби етакчи ташкилотлар фаолият юритилмоқда;

Жаҳондаги олий таълим муассасалари рейтингида етакчилик қилаётган 50 та университетида психологлар тайёрлаш йўлга қўйилган бўлиб, улардан 21 таси АҚШ, 9 таси (Буюк Британия), 7 таси Австралия, Канадада 3 та, 3 таси Гонконгда, 2 таси Сингапурда, 2 таси Нидерландияда, 2 таси Янги Зеландия ва 1 таси Белгиядаги университетлар улушига тўғри келмоқда.

Хорижий тажриба шуни кўрсатадики турли мамлакатлар психологик хизматлари ўзига хос ривожланган ва уларни мувоқлаштирган ҳолда ўрганиш ҳамда амалиётга татбиқ этилишини кўрсатмоқда.

Психологик хизмат йўналишининг назарий-илмий ва методологик асослари умумий психология фани шаклланиши билан боғлиқ узоқ тарихий илдизларга бориб



2-TOM, 2-SON

такалади. Қолаверса, психологик хизмат жараёни дастлабки психологик тушунчаларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш даврлари билан бевосита боғлиқдир.

Психологик хизмат йўналишлари турли давлатларда ўзига хос ташкил этилганлиги ва ҳар бир йўналишининг муайян мақсадларга қаратилганлигини алоҳида таъкидлаш мумкин. Бугунги кунда хорижда психологик хизмат фани алоҳида фан ва йўналиш сифатида Давлат таълим департаменти томонидан алоҳида назоратга олинмоқда. Чунки, ҳар бир давлатнинг ривожланиши бевосита шахс ва унинг ички салоҳиятига хос психологик имкониятлардан тўғри фойдалана олишга кўп жиҳатдан боғлиқ. Хорижда психологик хизмат тарихига назар соладиган бўлсак, Америкада шахсни ўзини-ўзи тарбиялаш жараёнини такомиллаштиришга қаратилган бир қатор илмий тадқиқотлар олиб борилган ҳамда бунинг натижаси ўлароқ умумтаълим мактабларида психологик хизмат тизимини шакллантиришга эришилган. Шунингдек, ушбу мактаб вакиллари турли интеллектуал тестларни қўллаш орқали шахснинг ақлий тараққиёти билан боғлиқ интеллект коэффиенти (IQ) ни аниқлаш мумкинлигини илмий асослаб берганлар. Бу илмий изланишлар самараси натижасида, кейинчалик, Америкадаги “Гайденс” мактаби хизматининг шаклланишига асос бўлди. XX аср бошларида шахснинг касбий йўналганлигини аниқлашга қаратилган махсус хизмат мактаби жорий қилинган. Жумладан, даставвал Френк Парсон томонидан 1908 йил Американинг Бостон шаҳрида ёшларни касбий йўналганлигини мониторинг қилувчи Расмий Уюшма ташкил этилиб, бу Уюшма фаолияти “Гайденс”чилар фаолияти мисолида ривожлантирилган.

Американинг ҳар бир штатида “Гайденс” мактабининг мутахассислари кенг қўламда иш олиб бордилар. Улар психологик хизмат билан боғлиқ барча масалаларга атрофлича ёндашилишини бошқариб борадилар. “Гайденс” мактаби ҳар бир ҳудуд учун алоҳида дастур ишлаб чиқди ва бу дастурда ҳар бир ўқувчининг алоҳида имкониятларига ташхис қўйилди. Бунинг учун эса мактабларда алоҳида қўмиталар тузилиб, бу қўмита таркибига директор ўринбосари, хизматнинг бош мутахассиси-каунслер (маслаҳатчи) ва болалар учун энг обрўли бўлган педагоглар киритилди. Демак, ҳар бир масъул ходимга ўз вазифасини бажариш билан бирга “Гайденс” хизматининг самарадорлиги учун алоҳида жавобгарлик юклатилди. Шу тариқа Каунслинг хизмати жорий этилди. Каунслерга эса алоҳида масъулият юклатилиб, у Олий таълим дипломига эга бўлиши билан бирга икки йиллик “Гайденс” мутахассислиги бўйича алоҳида курсни ҳам тугатган бўлиши шартлиги белгилаб қўйилди.



2-TOM, 2-SON

“Гайденс” курсларига қабул қилиниши учун мактабда камида икки йиллик педагогик иш стажи, педагогика бўйича магистрлик дипломи, ақлий қобилият тести бўйича юқори кўрсаткичга эга бўлиши, ҳамда иш жойида ижобий тавсияномаси бўлиши талаб қилинади.

“Гайденс” хизмати қуйидаги 4 та хизмат тармоғини ўз ичига олганлиги билан аҳамиятлидир:

1. Ташхислаш хизмати – унинг асосий вазифаси бола ҳақидаги барча маълумотларни йиғиш, тизимлаштириш, баҳолаш ва ўрнатилган тартибда таҳлил қилиш.

2. Ахборот хизмати – барча йўналишлар бўйича мавжуд ахборотларни умумлаштириш, таҳлил қилиш ва тегишли тартибдаги мониторинг ишларини юритиш.

3. Каунслинг хизмати – ўқувчи ва каунслер (маслаҳатчи) ўртасида ўзига хос психологик омиллар ва шахс хулқ-атворидаги қонуниятлар ҳамда ўзгаришлар бўйича тавсияларни шакиллантириш.

4. Йўналтириш хизмати – ўқувчиларни у ёки бу ўқув юртига ёки меҳнат ташкилотига ўз қобилиятига қараб йўналтириш.

Умумий назорат хизмати – “Гайденс” дастури натижалари бўйича мактаб битирувчиларининг кейинги тақдири ва улар ҳаракатининг коррекцион хусусиятлари билан шуғулланувчи махсус тузилма.

Умуман, Америкадаги “Гайденс” хизмати ҳар бир ўқувчи шахси унинг психологик имкониятлари ва тараққиётига дахлдор барча жабҳаларни ўз ичига қамраб олганлиги билан алоҳида характерланади. Гап шундаки, кейинчалик бу мактаб тажрибаси Англия, Норвегия, Швеция, Швецария, Германия каби қатор мамлакатларда ҳам кенг тарқалди. Айниқса, 1977 йилдаёқ ЮНЕСКО ташаббуси билан Халқаро анжуман ташкил қилинди ва бу анжуманда йирик психологлар иштирок этиб, улар томонидан хорижда психологик хизматга оид алоҳида илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилди. XX асрнинг 80-йилларида Америка кўшма штатларида мактаб психологларининг Миллий Ассоциацияси ташкил этилди. Бу Ассоциация ўзининг алоҳида “Низоми”ни ишлаб чиқди.

Америкалик психологлар Бардон ва Беннет психологик хизматнинг қуйидаги функционал даражаларини белгилаб берадилар:

- ❖ Шахсни турли хил гуруҳларга бўлиб, муайян мақсадга йўналтирилган тестлардан ўтказиш;
- ❖ Хулқ-атворидаги нуқсонларни коррекция қилиш;



2-TOM, 2-SON

❖ Психик ривожланишни тўлақонли назорат қилиш бўйича психологик ёрдам кўрсатиш.

Албатта, ушбу даражаларни белгилаш орқали Бардон ва Беннетлар психологнинг профессионал функцияларини асослаб беришга ҳаракат қиладилар. Америкадаги психологик хизмат амалиётининг истиқболли йўналишлари К.Р.Рейнолдс ва Т.Б.Гуткинлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда ҳам ўз ифодасини топган. Муаллифлар раҳбарлигида Америкада қуйидаги психологик хизмат йўналишлари амалга оширилади:

❖ Болалар ва ўсмирларнинг мактаб таълимига лаёқатини айнан психологик ва педагогик талаблар асосида аниқлаш;

❖ Болаларнинг когнитив, аффектив (эмоционал) ва социал ривожланишини таъминлашда психологнинг фаол аралашувини таъминлаш;

❖ Касбий ва шахсий психологик муаммоларни ечишда профессионал психологлар ролини ошириш.

❖ Мазкур йўналишлар Америка мактабларида бугунги кунда ҳам алоҳида аҳамият касб этиб тобора ривожланиб бормоқда.

Кўпчилик Шарқий Европа мамлакатларида психологик хизмат туман ёки вилоят психологик марказлари шаклида ташкил этилган. Масалан, 1980 йилда Чехославакияда тарбия масалалари бўйича алоҳида ҳужжатлар мактаб тўғрисидаги қонунга киритилди. Психологик хизматнинг асосий мазмуни – соғлом шахснинг ўсишини таъминлаш, шахс ривожланишидаги турли қийинчиликларни коррекция қилиш, касб танлаш муаммолари билан ҳамоҳанг тарзда амалга оширилади.

Чехославакиядаги психолог маслаҳатчининг асосий вазифаси шахснинг психодиагностик фаолиятини тўғри йўлга қўйиш билан белгиланади ва баҳоланади.

Кейинги йилларда Чехославакияда ҳам психологик хизматга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу давлатда, айниқса, психодиагностик ва психокоррекцион ишларга алоҳида эътибор қаратилади. Ҳозирги кунда, мазкур давлатда 1000 дан ортиқ психологлар фаолият юритади.

Франция психологик хизмат тажрибаси ҳам, ўзининг қатор илмий-амалий ҳамда экспериментал тажрибалари билан бутун дунёда алоҳида ўрин тутади. Жумладан, француз мактаб психологиясининг йирик намояндаси, Альфред Бине ҳисобланади. У бу соҳада 1894 йилдан иш бошлаган. 1905 йилда Франция таълим вазирлиги Бинегга умумий дастур бўйича ўқий олмайдиган болаларни текшириш муаммоси билан мурожаат қилади ва шу тариқа ақлий тараққиётдан орқада қолган болалар учун Бине-Симон тести яратилган эди.



2-TOM, 2-SON

1909 йилда биринчилардан бўлиб, Францияда малакали мактаб психологик хизмати тизими Анри Валлон раҳбарлигида ташкил этилади. 1947 йилда ташкил этилган Францияда психологик-педагогик ёрдам гуруҳлари психологик хизматнинг асосий қисмини ташкил этади. Бундай гуруҳлар таълим психологияси ва психомотор ривожланиш бўйича алоҳида мутахассисларни ўз ичига олади. 1985 йилда Франция давлат департаменти томонидан Таълим тизимида хизмат юритувчи психологларнинг алоҳида вазифалари аниқлаб берилди. Шунингдек, Францияда бир қанча психология мактаблари мавжуд бўлиб, бу мактаблар нафақат таълим тизимида, балки барча хизмат тармоқларида ҳам муваффақиятли фаолият олиб бораётганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Хитойда психологик хизмат амалиёти, асосан, йигирманчи асрнинг 80-йилларидан бошлаб ривожлана бошлади. Унда дастлаб, шахснинг психологик жиҳатдан соғломлигига асосий урғу берилди. Шунингдек, бугунги кунда Хитойда психологик хизмат, асосан, иккита концепция асосида амалга оширилмоқда. Биринчи концепция – шахсга психологик ёрдам бериш сифатида психотерапевтик имкониятлар кўламидан фойдаланиш (шифокорлар билан бирга) бўлса, иккинчи концепция, бу ахлоқий, эстетик, хулқий жиҳатдан муайян меъёрларга амал қилган ҳолда психологик ёрдам кўрсатишни ўз ичига олади. Демак, бугунги кунда Хитой психологик хизмат амалиёти кенг кўламда ҳаётга кириб келаётганлиги билан аҳамиятлидир. Хитойда психологик хизмат муаммоси бўйича докторлик диссертациясини 2002 йилда ёзган олим Люсаомин бўлиб, у ўзининг “Мактабда психологик хизмат ва ўқувчиларнинг психик соғломлиги” (Хитой халқ республикаси материаллари асосида), деб номланган тадқиқот ишида Хитойдаги психологик хизматнинг ташкил этилиш тарихи, бугунги ҳолати ва келажакдаги истиқболларини назарий-илмий ва амалий-тадқиқот жиҳатдан батафсил асослаб беради.

Венгриялик психологлар Балинт ва М.Муранинг тадқиқотларида психологик хизмат вазифасини аниқлашга қаратилган шахсларнинг ўз ишидан қониқишини таъминлаш ва ўз ишидан (яъни ўз фаолиятидан) қониқмаслик ҳолатини бартараф этиш йўллари кўрсатилади. Шунингдек, бу олимларнинг илмий талқинича, ҳар бир ишчи-ходимнинг ўз ишидан қониқиши унинг кайфиятини, фаоллигини таъминласа, ишдан қониқмаслик эса корхонада юз берувчи айрим фавқулодда бахтсиз ҳодисаларнинг келиб чиқишига сабаб бўлади. Дарҳақиқат, бугунги кунда деярли барча корхоналарда бахтсиз ҳодисалар жуда кўп учрамоқда. Уни камайтириш ва олдини олиш эса, ҳамиша ҳам муваффақиятли ҳал қилинаётгани йўқ. Бунинг учун эса, муаммонинг ижтимоий психологик илдизлари ҳақида чуқурроқ ўйланса, юзлаб,



2-TOM, 2-SON

балки минглаб одамлар ҳаёти, саломатлиги ва ижтимоий-руҳий мавқеи сақлаб қолиниши мумкин. Бу ўринда айтиш мумкинки, психологик хизматнинг ташкил этилиши энг биринчи навбатда корхоналарда юз берувчи бахтсиз ҳодисалардан сақланиш-ҳимояланиш воситаси сифатида ўта муҳим ижтимоий аҳамият касб этади. Афсуски, бундай хизматни ташкил этиш жуда кўпгина меҳнат муассасаларида ҳозиргача ижтимоий муаммо бўлиб келмоқда.

Психологик хизмат методологияси учун индивидуал психологик фарқланиш назариясининг яратилишини ва бу борада ўнлаб йирик тадқиқотларнинг мавжудлигини муҳим манбалардан бири сифатида, ҳеч муболағасиз, эътироф этиш мумкин. Дифференциал психологиянинг маҳсули бўлган бу йўналиш, даставвал, немис психологи В.Штерн номи билан бевосита боғлиқдир, у ўзининг 1901-йилда ёзган "Индивидуал фарқланиш психологияси ҳақида" номли асарида ҳар бир индивиднинг ўзига хос психологик олами мавжудлигини экспериментал тарзда тадқиқ қилади.

Ф. Гальтон, А. Бине, А.Ф. Лазурский, Д.Кэттелл каби олимлар бу соҳада янги бир йўналишни кашф қилдилар. Шундан сўнг, дифференциал психология ҳар бир индивид ёки гуруҳдаги қизиқишлар, установакалар, ҳиссий қўзғалишларни фарқлаш объекти сифатида майдонга чиқди ва унинг бугунги психологик хизмат методологияси учун аҳамиятли томони шундаки, ҳар бир индивид ёки шахснинг ўзигагина хос психологик имкониятларини аниқлаш ва тегишли илмий мулоҳаза юрита олишга хизмат қилувчи комплекс тестлар, усуллар ва методикалар мажмуаси яратилди. Бинобарин, чет эл илғор психологиясида психологик хизмат методологияси учун муҳим ўрин тутувчи йўналишларга асос солинди.

Б.М. Теплов, В.С. Мерлин, В.Д. Небылицын, Б.Р. Қодиров. ва уларнинг шогирдлари томонидан олиб борилган эмпирик тадқиқотлар мазмуни ижтимоий психология ва ижтимоий психологик хизмат учун муҳим бўлган ҳар бир шахснинг (индивиднинг) табиий ва туғма сифатларини, олий асаб фаолиятининг ўзига хос қобилият элементларини ва унга таъсир этувчи таълим-тарбия, ташқи муҳит ва фаолиятнинг нечоғлик ташкил этилиш жараёнини мукамал ўрганиш ва уни ижтимоий мақсадлар асосида ривожлантириш йўллари белгилаш учун катта имконият яратди. Мазкур имкониятлар инсондаги у ёки бу фаолиятни бажаришга бўлган иқтидор куртакларини ўрганишни ва шу асосда шахс фаоллигини камол топтириш учун асос сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунга мувофиқ махсус тадқиқотлар шуни тасдиқлаётгани, фаолиятнинг муваффақиятли ташкил этилиши, аввало, индивидуал хусусиятлар, айниқса, ҳар бир шахс темпераменти ва индивидуал



2-TOM, 2-SON

услугига ҳам боғлиқ. Айти пайтда, меҳнат ва ўқув фаолияти жараёнида ушбу ҳолатни кузатиш, таҳлил қилиш ва ривожлантириш билан боғлиқ усуллар мажмуасининг ишлаб чиқилиши психологик хизматнинг муҳим вазифаси эканлигидан далолатдир.

Шундай қилиб, психологик хизматнинг методологик асослари сифатида талқин қилинган юқоридаги фикр-мулоҳазалар ижтимоий психология фанининг қуйидаги амалий-татбиқий йўналишларига бугунги куннинг энг долзарб муаммолари сифатида қарашни тақозо этади:

1. Психологик хизмат методологияси ҳар бир шахснинг у ёки бу фаолиятда ижтимоий ва ҳиссий қониқиш жараёнини таъминлашга қаратилган омилларни назарий ва эмпирик жиҳатдан асослаб беришга қаратилиши лозим.

2. Психологик хизмат шахснинг фаолият жараёнидаги ўз-ўзига, ўзгаларга ва фаолиятга бўлган муносабатларидаги иерархик тизим динамикасини тадқиқ қилиши ва шу тизим асосида ижтимоий психологик муҳитнинг яратилишига замин ҳозирлай олиши билан боғлиқ изланишлар кўламини ўз ичига олиши билан аҳамиятлидир.

3. Психологик хизмат жараёни билан боғлиқ ижтимоий муҳим кўрсаткичларнинг таҳлили ҳар бир шахс фаолияти учун характерли бўлган индивидуал фарқланиш, индивидуал услуб ва ижтимоий установканинг қарор топтирилишини ўрганиш асосида амалга оширилиши мумкин.

4. Психологик хизматнинг ташкил этилиши шу маҳаллада истиқомат қилувчи аҳолининг турли гуруҳларидаги психологик муаммоларни бартараф этиш тизимини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш билан баҳоланади.

5. Муаммонинг илмий адабиётларда ёритилиши ва методологик асослари билан боғлиқ юқоридаги таҳлилларнинг баён этилиши психологик хизматнинг илмий-амалий жиҳатдан асосланган вазифаларини ҳамда ўзига хос ижтимоий-психологик истиқболларини белгилашда муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётлар:

1. Баротов, Ш. Р. (2023). НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ЛКИИСИ РАН, МАПН, 2023–267 с.*, 13.

2. Баратов, Ш. Р., & Сабирова, Д. А. (2016). Социальный интеллект как необходимое качество педагога. *История российской психологии в лицах: Дайджест-ISSN 2415-7953 (РИИЦ)*, (6).

3. Баротов, Ш. Р. (2018). Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик. *Т.: “Наврўз” нашриёти*, 344.



2-TOM, 2-SON

4. Баротов, Ш. Р. (2015). A role of social intellect and social competence in professional development of a teacher in the intense training system. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 3(4), 43-48.
5. Баротов, Ш. Р. (2012). Социальный Интеллект: Структура и Функции. *Психология XXI столетия*, 2, 153-158.
6. Баротов, Ш. Р. (1995). Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. *Т.: Ўқитувчи*, 57.
7. Баратов, Ш. Р. (2021). Из опыта внедрения концепции психологической службы в Узбекистане. “XXI АСР ПСИХОЛОГИЯСИ” МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ, 5.
8. Баротов, Ш. Р. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно-методическое пособие). *Бухара: Дурдона*.
9. Баротов, Ш. Р. (1999). Таълимда психологик хизмат асослари (Монография). *Т.: Маънавият*.
10. Baratov, S. R. (1991). Kul'tura skotovodov Severnoj Fergany v drevnosti I ranned srednevekov'je. *Avtoreferat Kandidatskoj Dissertacii. Institut arheologii, Samarkand*.
11. Баротов, Ш. Р., & Баротова, М. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике. *Учебно-методическое пособие-Бухара*, 90-98.
12. Баратов, Ш. Р. (2021). Методологические основы и стратегии развития психологической службы в Узбекистане. *Дифференциальная психология и психофизиология сегодня: способности, образование, профессионализм*, 1(1), 94-100.
13. Baratov, S. (2021). АКТУАЛЬНЫЕ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 22(22).
14. Baratov, S. (2020). ЎСМИРЛАР ОРАСИДА СУИЦИД ҲОЛАТЛАРИНИНГ СОДИР ЭТИЛИШИНИНГ САБАБЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
15. Баратов, Ш., Бафаев, М., Вержибок, Г., Головаха, Е., Костригин, А., Кроник, А., ... & Янакиева, Е. (2015). Подведение итогов или заключение. *РЕМ: Psychology. Educology. Medicine*, (3-4), 452-455.
16. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 834-838.
17. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 839-843.



2-ТОМ, 2-СОН

18. Баратов, Ш. Р., Мухтаров, М. Х., & Мухтаров, Э. М. (2008). Формирование психологической готовности школьников к труду на этапе учебно-трудовой деятельности. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 6, 345-349.

19. Баратов, Ш. Р. ВЫЯВЛЕНИЕ АКЦЕНТУАЦИИ ХАРАКТЕРА ПРИ АДАПТАЦИИ УЧАЩИХСЯ К УСЛОВИЯМ КОЛЛЕДЖА. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 26.

20. Баратов, Ш. Р. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)*, 3, 7-14.

21. Баратов, Ш. Р. (2023). ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СЛУЖБА В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ УЧАЩИХСЯ. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*.

22. Баратов, Ш. Р., & Абдуллаев, Ш. З. (2022). Психологические механизмы формирования карьерной мотивации у подростков. *Science and Education*, 3(5), 1583-1589.

23. Баротов, Ш. Р., Баротова, Д. Ш., & Исматова, Д. Т. (2021). ОИЛА ПСИХОЛОГИЯСИ ФАНИДАН МУЛЬТИМЕДИА МАҲСУЛОТИНИНГ ЯРАТИЛИШИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР. *Psixologiya*, (1), 3-8.

24. Barotov, S., & Barotova, D. (2020). Scientific-Practical Basics of Creation of Psychological Service in Uzbekistan. *development*, 6(7), 8.

25. Baratov, S. (2020). ИЗ ОПЫТА ВНЕДРЕНИЯ КОНЦЕПЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНАНЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 2(2).

26. Baratov, S. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ТАРБИЯЧИЛАРИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ АМАЛИЙ ЖИҲАТДАН ЎРГАНИЛИШИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

27. Баратов, Ш. Р. (2017). НОВЫЕ ЗАДАЧИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. *Психология XXI столетия*, 40.

28. БАРОТОВ, Ш. (2016). СОЦИАЛЬНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. *Человеческий фактор: Социальный психолог*, (1), 17-23.

29. Баратов, Ш. Р., & Баротова, Д. Ш. (2014). МОДЕЛИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНАНЕ. *Человеческий фактор: Социальный психолог*, (1), 46-51.



2-ТОМ, 2-СОН

30. Баратов, Ш. Р., & Мухтаров, Э. М. (2007). Некоторые результаты эмпирического исследования, проведенного психологической службой в учебных заведениях. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 5, 33-35.

31. Баратов, Ш. Р., & Баротова, М. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике. *Учебно-методическое пособие-Бухара*, 90-98.

32. Баратов, Ш. Р. (1990). *Психологические особенности воспитания активно положительного отношения младших школьников к труду* (Doctoral dissertation, НИИ общей и пед. психологии).

33. Баратов, Ш. Р. ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКАЯ РАБОТА ПСИХОЛОГА. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 51.

34. Баратов, Ш. Р. АКТУАЛЬНЫЕ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 20.

35. Баратов, Ш. Р. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 43.

36. Баратов, Ш. Р. ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА. *PSIXOLOGIYA Учредители: Бухарский государственный университет*, (4), 3-8.

37. Баратов, Ш. Р., Мухтаров, М. Х., & Мухтаров, Э. М. ПРОБЛЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ УЧАЩИХСЯ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА.

38. Баратов, Ш. Р., Рашидов, М. М., & Тошев, Х. Х. МЕДИЦИНСКАЯ КУЛЬТУРА—ЗАЛОГ ЗДОРОВЬЕ. *ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ*, 30.

39. Баратов, Ш. Р. (2013). Методология обучения прикладных психологов: психологические основы социального интеллекта в системе образования. *Вестник интегративной психологии*, 48-49.

40. Баратов, Ш. Р., Баротова, Д. Ш., & Усманова, М. Н. (2017). Психологическая служба образования: от теории к практике.

41. Баратов, Ш. Р. (1998). *Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане* (Doctoral dissertation, Автореф. дис.... докт. психол. наук).

42. Баратов, Ш. Р. (2023, December). НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *The Role of Technical*



2-TOM, 2-SON

Sciences in IV Industrial Civilization: International Scientific and Practical Conference (UK) (Vol. 4, pp. 46-53).

43. Ramazanovich, B. S., & Mustafievich, M. E. (2007). Results of empirical research carried out by psychologists in educational establishments. *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития*, 5, 17-19.

44. Чупров, Л. Ф., & Баратов, Ш. Р. 1.1. Voloshchuk Ivan, Rudyk Yaroslav. Special.

45. Березуцкий, В. И., & Баратов, Ш. (2016). СОЦИАЛЬНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. *ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ*, 61.

46. Babayarov, G. B., Baratov, S. R., Ilyasov, J. Y., Rogozhinskii, A. E., Smagulov, E. A., Tabaldyev, K. S., & Yatsenko, S. A. (2019). *Tamgas of Pre-Islamic Central Asia*. Международный институт Центральноазиатских исследований.

47. Chudakova, V. P., Sharipov, S. S., Chuprov, L. F., & Baratov, S. R. (2019). Psychological support of the educational process: psychological service at school-creation, current state and prospects. *Osvita and development of gifted specialties*, (2), 39-46.

48. Чудакова, В. П., Шарипов, Ш. С., Чупров, Л. Ф., & Баратов, Ш. Р. (2019). Психологическое обеспечение образовательного процесса: психологическая служба в школе— создание, современное состояние и перспективы. *Освіта та розвиток обдарованої особистості*, (2), 39-46.



*Умаров Ислом Алишерович
Фарғона вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲБ
1-ТРЎва ИОБ бўлими бошлиғи*

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари таҳлили

Аннотация. Ушбу мақолада йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган. Муаллифнинг фикрича, йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасига жиддий эътибор қаратиш лозим.

Муаллифнинг назаримизда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг учда муҳим таркибий қисми мавжуд: биринчиси – йўлларда ҳаракатланиш хавфсизлигининг техник жиҳатлари; иккинчиси – йўлларда хавфсиз ҳаракатланишнинг маъмурий жиҳатлари. Йўлларда хавфсиз ҳаракатланишнинг маъмурий жиҳатларининг институционал ва ҳуқуқий асослари мавжуд; учинчиси – йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси.

Калит сўзлар: йўл ҳаракати; йўл ҳаракати қоидалари; йўл ҳаракати хавфсизлиги; йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар йўл-транспорт ҳодисалари; ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

Особенности профилактики нарушений правил дорожного движения

Аннотация. В данной статье анализируются конкретные аспекты профилактики нарушений правил дорожного движения. По мнению автора, серьезное внимание следует уделить профилактике нарушений правил дорожного движения.

По мнению автора, существуют три важные составляющие профилактики нарушений правил дорожного движения: первая – технические аспекты безопасности дорожного движения; второй – административные аспекты безопасности дорожного движения. Существуют институциональные и правовые основы административных аспектов безопасности дорожного движения; третье – предупреждение нарушений правил дорожного движения.

Ключевые слова: трафик; правила дорожного движения; безопасность дорожного движения; нарушения правил дорожного движения, дорожно-транспортные происшествия; предотвращение преступления.

Features of the prevention of traffic violations



2-TOM, 2-SON

Annotation. This article analyzes specific aspects of the prevention of traffic violations. According to the author, serious attention should be paid to the prevention of traffic violations.

According to the author, there are three important components in the prevention of traffic violations: the first is the technical aspects of road safety; the second is the administrative aspects of road safety. There are institutional and legal frameworks for the administrative aspects of road safety; the third is the prevention of traffic violations.

Key words: traffic; Traffic Laws; road safety; traffic violations, traffic accidents; crime prevention.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг ҳуқуқий асослари тизимида Ўзбекистон Республикасининг янги тарҳирдаги Конституцияси муҳим ўрин тутди. Айниқса Конституциянинг янгиланиши билан муносабати билан унда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга хизмат қиладиган қатор янги нормалар жой олди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатнинг бутун ҳудудида олий юридик кучга эгаллиги, тўғридан-тўғри амал қилиши ва ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил этиши (15-м), Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари ҳуқуқий тизимининг таркибий ҳисобланаши (15-м), Ўзбекистон Республикаси фуқароси ва давлат бир-бирига нисбатан ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқлиги, инсоннинг Конституция ва қонунларда мустақкамлаб қўйилган ҳуқуқ ва эркинликлари дахлсизлиги ҳамда улардан суд қарорисиз маҳрум этишга ёки уларни чеклаб қўйишга ҳеч ким ҳақли эмаслиги, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари бевосита амал қилиши, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларнинг, давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг моҳияти ва мазмунини белгилаши, давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши кераклиги, инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилиши (20-м) ва бошқа нормалар ҳуқуқ-тартибот фаолиятини, шу жумладан йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасини ташкил этишда раҳбарий-ҳуқуқий аҳамиятга эга.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куйидаги икки таркибий қисмдан иборат:



2-TOM, 2-SON

биринчиси – йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашга оид муносабатлар;
иккинчиси – ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид муносабатлар.

Бироқ бугунги кунда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашга оид муносабатлар ҳам ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид муносабатлар ниҳоятда тарқоқ тартибга солинган бўлиб бу борада ягона ҳуқуқий макон ҳали тўла шаклланмаган. Жумладан, С.Б. Хўжакулов ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш лозимлиги юзасидан шундай таъкидлайди: “Ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлили ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид муносабатларни тартибга солувчи соҳага оид 4 та қонун, Президентимизнинг 4 та фармон ва 9 та қарорлари, Ҳукуматимизнинг 11 та қарорлари ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида олиб борилаётган ислохотларнинг турли даврларида қабул қилиниши, ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги баъзи нормалар маънан эскирган ва айримлари ўзаро номувофиқлигини, аксарият нормалар такрорланиш хусусиятига эга бўлиб қолганини ва баъзиларида ҳуқуқий бўшлиқлар мавжудлигини кўрсатмоқда. Бу эса мазкур қонун нормаларини қўллаш ва улардан фойдаланишда муаммо ва камчиликларни келтириб чиқариб, фаолият самарадорлигига салбий таъсир кўрсатмоқда. Натижада, ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир қонун ҳужжатларини тизимлаштириш, аниқроғи кодекслаштириш зарурати юзага келган”⁹

Шунингдек, К.М. Рахимов ҳам йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги муносабатларни тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш зарурати ҳақида тўхталаб, Ўзбекистон Республикасида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасини тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатлари жуда кўп ва тарқоқлиги, ушбу муаммони ҳал этиш учун соҳага доир қонун ҳужжатларини тизимлаштириш, кодификациялаш лозимлигини таъкидлаб, ушбу масалани ҳал этишнинг 2 хил усули таклиф этилган. Биринчиси, йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасига доир барча қонунчилик ҳужжатларини мазмунан бирлаштириб, ягона Йўл ҳаракати хавфсизлиги кодексини ишлаб чиқиш, иккинчиси, Ҳукумат қарорларининг мазмунан яқин ва такрорланувчи турларини аниқлаб, бирлаштириш, ҳаволаки нормаларни чиқариб ташлаш ва Ички ишлар вазирининг ички идоравий

⁹ Хўжакулов С.Б. *Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: генезиси, назарияси ва амалиёти: юрид. фан. док. дисс. – Т. 2023. Б.52.*



2-TOM, 2-SON

хужжатларини юқори юридик кучга эга Хукумат қарори шаклида қайта қабул қилиш ёки бирлаштириш¹⁰.

Биз ҳам йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш ҳамда ҳукуқбузарликлар профилактикасига оид муносабатларни тартибга солувчи қонунчилик ҳужжатларини тизимлаштириш лозим деб ҳисоблаймиз. Аммо бу борада алоҳида кодексларнинг қабул қилинишини ёқламаймиз. Чунки кодекслаштиришнинг ўз талаб ва меъёрлари борки ҳали таҳлил қилинаётган соҳаларни кодекслаштириш зарурати юзага келгани йўқ.

Шундай қилиб йўл ҳаракатига оид ҳукуқбузарликлар профилактикасининг ҳуқуқий тартибга солиниши қуйидагича амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасининг қонунлари даражаси. Ўзбекистон Республикасининг “Автомобиль йўллари тўғрисида”ги 2007 йил 2 октябрдаги қонунига биноан йўл ҳаракатига оид ҳукуқбузарликлар профилактикасига оид муайян талаблар белгиланган. Хусусан, қонунда “автомобиль йўли” тушунчасига берилган таърифда автомобиль йўллари транспорт воситаларининг хавфсиз ҳаракатланишини таъминлаши кераклиги баён этилган. Шунингдек, йўл бўйи минтақаси ҳам ажратилган минтақага туташган, чегараларида аҳоли хавфсизлигини ва транспортнинг ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлайдиган ер участкаси эканлиги қайд этилган. Мазкур қонуннинг 18-моддасида автомобиль йўлларида фойдаланувчиларнинг мажбуриятларидан бири сифатида ҳам ҳаракат хавфсизлигини ва автомобиль йўлларида сақлашни таъминлай оладиган ҳолатдаги транспорт воситаларидан фойдаланишлари лозимлиги назарда тутилган¹¹.

Кўриниб турибдики, мазкур қонунда йўл ҳаракатига оид ҳукуқбузарликлар профилактикасининг асосан техник жиҳатлари назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги 2013 йил 10 апрелдаги янги таҳрирдаги қонунида ҳам йўл ҳаракатига оид ҳукуқбузарликлар профилактикасининг техник жиҳатлари тартибга солинган. Хусусан қонуннинг 3-моддасида “йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш” тушунчаси “йўл-транспорт ҳодисалари юзага келиши сабабларининг олдини олишга, бундай ҳодисалар оқибатларининг оғирлигини камайтиришга қаратилган фаолият” сифатида таърифланган. Бироқ бу ерда ҳукуқбузарлик эмас, йўл-транспорт

¹⁰ Рахимов К.М. *Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимининг назарий-ҳуқуқий жиҳатлари: юрид. фан. бўй. фалс. докт. дисс. Автореф.* – Т. – 2022. Б.13.

¹¹ *Ўзбекистон Республикасининг “Автомобиль йўллари тўғрисида”ги 2007 йил 2 октябрдаги қонуни* // <https://lex.uz/docs/1254490>.



2-TOM, 2-SON

ходисаларининг олдини олиш назарда тутилган. Йўл-транспорт ҳодисаси эса йўл ҳаракатига оид ҳамма ҳуқуқбузарликларни камраб олмайди, моддий оқибат келиб чиқмаган йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар йўл транспорт ҳодисаси ҳисобланмайди. Нега деганда, йўл транспорт ҳодисаси натижасида биринчидан, транспорт воситасининг йўлда ҳаракатланиши жараёнида рўй берган бўлиши керак (агар йўл ҳисобланмайдиган жойда юз берган бўлса йўл-транспорт ҳодисаси ҳисобланмайди), иккинчидан эса унинг оқибатида фуқароларнинг ҳалок бўлиши ёки соғлиғига зарар етиши, транспорт воситалари, иншоотлар, юкларнинг шикастланиши ёхуд бошқа моддий зарар етиши юз берган бўлиши лозим. Аммо йўл ҳаракатига оид шундай ҳуқуқбузарликлар борки уларнинг моддий оқибати бўлмайди, яъни бундай ҳуқуқбузарликлар формал таркибли ҳисобланади. Масалан, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 128¹-моддасига биноан транспорт воситасини бошқариш вақтида ҳайдовчиларнинг телефондан фойдаланганлиги учун маъмурий жавобгарлик белгиланган¹². Аммо бу ерда моддий оқибат келиб чиқиши талаб этилмайди. Шунингдек, транспорт воситасини бошқариш вақтида теле-, видеодастурларни томоша қилиш мақсадида монитордан (дисплейдан) фойдаланиш (128²-м.), транспорт воситалари ҳайдовчиларининг белгиланган ҳаракат тезлигини ошириб юбориши (128³-), транспорт воситалари ҳайдовчиларининг светофорнинг тақиқловчи сигналига ёки йўл ҳаракатини тартибга солувчининг тақиқловчи ишорасига бўйсунмасдан тўхташ чизигини босиб кириши ва ўтиши (128⁴-м.) каби бир қатор ҳуқуқбузарликларнинг юз бериши (содир этилиши) учун моддий оқибат келиб чиқиши талаб этилмайди ва бундай ҳуқуқбузарликлар йўл-транспорт ҳодисаси ҳисобланмайди.

Демак, ҳар қандай йўл-транспорт ҳодисаси ҳуқуқбузарлик ҳисобланади, аммо ҳар қандай ҳуқуқбузарлик йўл-транспорт ҳодисаси ҳисобланмайди деган қоида келиб чиқади. Шу сабабли йўл йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашга оид қонунчилик ҳужжатлари фақатгина моддий оқибат келтириб чиқариши мумкин бўлган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасининг “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги қонуни моддий оқибат келтириб чиқарадиган йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга хизмат қилади. Қонунда асосан йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олишга қаратилган ташкилий ва техник масалалар ўзининг ифодасини топган. Назаримизда ушбу қонунга йўл ҳаракатига оид барча

¹² Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // <https://lex.uz/docs/2153411>.



2-TOM, 2-SON

хуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган ҳуқуқий нормаларни киритиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистон Республикасининг “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни хуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги муносабатларни тартибга солувчи асосий қонун ҳисобланади. Бироқ мазкур асосан қасдан содир эталадиган хуқуқбузарликларнинг олдини олишга оид муносабатларни тартибга солишга қаратилган. Умуман олганда мамлакатимизда хуқуқбузарликлар профилактикаси тизими асосан қасдан содир этилган хуқуқбузарликларга нисбатан қаратилган. Шунингдек, мазкур қонунда бевосита йўл ҳаракатига оид хуқуқбузарликлар профилактикасига оид ҳеч қандай норма мавжуд эмас ва шу билан бирга хуқуқбузарликлар профилактикаси чора-тадбирларининг аксарияти йўл ҳаракатига оид хуқуқбузарликларнинг олдини олишга мос келмайди. Профилактик ҳисобга олишнинг фақатгина битта асоси (131-модда. Транспорт воситаларини маст ҳолда бошқариш) йўл ҳаракатига оид хуқуқбузарлик ҳисобланади¹³.

Таҳлил қилинаётган қонунда хуқуқбузарликлар профилактикаси — хуқуқ-тартиботни сақлаш ҳамда мустаҳкамлаш, хуқуқбузарликларни аниқлаш, уларга барҳам бериш, шунингдек хуқуқбузарликлар профилактикаси “ҳуқуқий, ижтимоий, ташкилий ва бошқа чора-тадбирлари тизими”дан иборат эканлиги назарда тутилган. Аммо йўл ҳаракатига оид хуқуқбузарликларнинг аксариятининг олдини олишда техник чора-тадбирлар ҳам қўлланилади. Шу сабабли “хуқуқбузарликлар профилактикаси”га таъриф беришда унинг техник чора-тадбирлардан иборат эканлигини ҳам назарда тутиш лозим.

Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонунига биноан ички ишлар органлари фаолиятининг асосий йўналишлари ва ваколатлари ҳам белгиланган бўлиб, унга кўра ички ишлар органлари “йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш” ички ишлар органларининг асосий вазифаларидан бири сифатида белгиланган. Шунингдек, мазкур қонунда ички ишлар органларининг асосий хуқуқлари сифатида ҳам “йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисидаги қонунчиликка риоя этилиши устидан назоратни амалга ошириш” ҳамда

¹³ Ўзбекистон Республикасининг “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // <https://lex.uz/docs/2387357>.



2-TOM, 2-SON

“йўл ҳаракати хавфсизлиги стандартлари, қоидалари ва нормаларини ишлаб чиқиш” назарда тутилган¹⁴.

Бироқ “йўл ҳаракати хавфсизлиги” йўл ҳаракатига оид барча ҳуқуқбузарликларни қамраб олмайди. Чунки, Ўзбекистон Республикасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги 2013 йил 10 апрелдаги қонунда йўл ҳаракати хавфсизлиги тушунчасига “йўл ҳаракати қатнашчиларининг йўл-транспорт ҳодисалари ва уларнинг оқибатларидан ҳимояланганлик даражасини акс эттирувчи йўл ҳаракати ҳолати” сифатида таъриф берилган¹⁵. Демак ички ишлар органларининг йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасидаги фаолияти ҳам йўл-транспорт ҳодисалари билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Транспорт тўғрисида”ги 2021 йил 9 августдаги қонунида йўловчиларни, багажни, юк багажини, юкларни, почта ва курьерлик жўнатмаларини ташиш жараёнига оид муносабатлар тартиб солинган бўлиб, бу жараёндаги ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга оид маълум нормаларни ўзида ифодалайди. Хусусан, қонунда йўловчиларни, багажни, юк багажини, юкларни, почта ва курьерлик жўнатмаларини ташиш жараёнидаги техник хавфсизлик билан боғлиқ масалалар белгиланган¹⁶.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда ҳам йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид нормалар ўз ифодасини топган. Ушбу кодексда йўл ҳаракатига оид маъмурий ҳуқуқбузарликларни назарда тутиш ҳамда бундай турдаги ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритиш орқали тегишли профилактик чоралар амалга оширилади. Кодексининг XI бобида транспортдаги, йўл хўжалиги ва алоқа соҳаларидаги ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарлик назарда тутилган бўлиб, йўл ҳаракатига оид 28-моддада кўрсатилган ҳуқуқбузарликларнинг ва 2 тасида (133-модда. Транспорт воситалари ҳайдовчиларининг йўл ҳаракати қоидаларини бузиши жабрланувчига енгил тан жароҳати ёки анча миқдорда моддий зарар етказилишига олиб келиши, 134-модда. Ҳайдовчиларнинг йўл ҳаракати қоидаларини бузиши транспорт воситаларининг ёки бошқа мол-мулкнинг шикастланишига олиб келиши) йўл-

¹⁴ Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // <https://lex.uz/docs/2387357>.

¹⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида»ги 2013 йил 10 апрелдаги қонун // <https://lex.uz/docs/2153411>.

¹⁶ Ўзбекистон Республикасининг “Транспорт тўғрисида”ги 2021 йил 9 августдаги қонуни // <https://lex.uz/docs/5563039>.



2-TOM, 2-SON

транспорт ҳодисалари билан боғлиқ ҳуқуқбузарлик ҳисобланади. Қолган 26 та моддадаги ҳуқуқбузарликлар эса моддий таркибли ҳуқуқбузарлик ҳисобланади¹⁷.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари. Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари алоҳида ўрин тутди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 октябрдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасида инвестициявий лойиҳани амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3989-сон қарорида «ATLAS International» (Германия) компаниялар гуруҳи билан ҳамкорликда «Ўзбекистон Республикасида йўл ҳаракати қоидалари бузилишини фото-видео фиксация қилишнинг автоматлаштирилган тизими» инвестициявий лойиҳасини амалга ошириш масалалари маъқулланди.

Ушбу лойиҳа доирасида қуйидаги шартлар белгиланди:

йўл ҳаракати қоидалари бузилишини фото-видео фиксация қилишнинг автоматлаштирилган тизимини жорий этиш 2018 — 2025 йилларда Андижон, Наманган, Тошкент ва Фарғона вилоятлари ҳудудида амалга оширилади;

«ATLAS International» компаниялар гуруҳи томонидан Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги билан ҳамкорликда фото-видео фиксация қилиш тизимининг техника ва жиҳозларини белгиланган стандарт ва талабларга мувофиқлигини ўлчаш бўйича лаборатория очилиши назарда тутилади;

лойиҳани амалга ошириш ва молиялаштириш давлат-хусусий шериклик шартлари асосида Инвестор томонидан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳисобидан лойиҳа ҳужжатларини босқичма-босқич ишлаб чиқиш орқали амалга оширилади;

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг «Хавфсиз шаҳар» тизимларини ривожлантириш маркази» давлат муассасаси лойиҳани амалга ошириш бўйича ишчи орган ҳисобланади;

инвестициявий харажатларни қайтариш учун лойиҳа буюртмачиси — Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги масъул ҳисобланиб, жорий қилинаётган автоматлаштирилган тизим Ички ишлар вазирлиги Жамоат хавфсизлиги департаменти Йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати балансига берилади¹⁸.

¹⁷ *Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // <https://www.lex.uz/acts/97664>.*

¹⁸ *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 октябрдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасида инвестициявий лойиҳани амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3989-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4031916>.*



2-TOM, 2-SON

Кўришиб турибдики, мазкур хужжатлар йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларга қарши курашишнинг техник жиҳатлари тартибга солинган. Қолаверса, биргина 2021-йилнинг ўзида жамоат жойларида содир этилган жиноятларнинг 30 фоизи видеокузатув тизимлари ёрдамида очилганлиги ҳам аҳоли орасида профилактик таъсирчанлигини янада ошишига хизмат қилади. Бугунги кунда ривожланган давлатларда ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, хусусан уларни қайд этишнинг техник жиҳатларига алоҳида эътибор берилади. Шу боисдан ҳам, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикасида кузатув камераларидан фойдаланиш ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг назорат шаклларида бири (техник назорат) сифатида тан олинган¹⁹.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 4 апрелдаги “Автомобиль йўлларида инсон хавфсизлигини ишончли таъминлаш ва ўлим ҳолатларини кескин камайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-190-сонли қарорида йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид бир қатор муҳим масалалар белгиланди. Хусусан, қуйидагилар мамлакатимизда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг долзарб йўналишлари этиб белгиланган:

автомобиль йўллари инфратузилмасини такомиллаштириш ва уларнинг сифатини яхшилаш, йўл ҳаракати иштирокчиларининг “пиёда – жамоат транспорти – велотранспорт – автотранспорт” устуворлиги асосида хавфсиз ҳаракатланиши учун ишончли шарт-шароитлар яратиш;

ҳайдовчиларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимида инновацион педагогик технологияларни жорий қилган ҳолда, ўқув жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш;

ҳайдовчи ва пиёдаларнинг йўл ҳаракати қоидаларига риоя қилиш маданиятини ошириш, ҳар қандай қоидабузарлик учун жазо муқаррарлигини таъминлаш;

йўл ҳаракати қоидалари асосларини болалиқдан сингдиришни йўлга қўйиш, ушбу амалиётни мактабгача таълим ташкилотлари ва умумтаълим мактабларида жорий этиш;

¹⁹ Эшназаров М.Ж. *Ҳуқуқбузарликларнинг махсус профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида) // Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Т., 2022. – 344.*



2-TOM, 2-SON

йўл ҳаракатини ташкил этишни тўлиқ рақамлаштириш, илғор ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилган ҳолда, янги бошқарув ва назорат тизимларини татбиқ қилиш²⁰.

Шунингдек, ушбу қарор билан йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича республика махсус комиссияси тўғрисидаги низом ҳамда унинг республика ва ҳудудий комиссияларининг таркиби тасдиқланди.

Қарорга мувофиқ туманлар (шаҳарлар)да йўл ҳаракатини самарали ташкил этиш ҳолатини баҳолаш бўйича «Хавфсиз йўл» индексининг индикаторлари ҳам жорий этилган бўлиб унга кўра ушбу индикаторлар икки гуруҳдан иборат: **I. йўл инфратузилмаси бўйича ҳамда II. йўл ҳаракати қоидаларига риоя қилиниши бўйича.**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича қарорларини қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

Биринчиси – йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг техник жиҳатларига оид қарорлар. Хусусан, Ҳукуматнинг 1993 йил 17 февралдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 90-сон қарорида автотранспорт воситаларининг руль бошқаруви ўнг томонда жойлашган бўлса, 1993 йилнинг 1 мартдан рўйхатга олиншига, 1993 йилнинг 1 июлидан эса улардан фойдаланилишига йўл қўймаслиги бўйича талаблар белгиланди. Гап шундаки, мустақилликнинг дастлабки йилларида хориждан руль бошқаруви ўнг томонда бўлган автотранспорт воситаларини олиб келиш ҳолатлари кескин ортиши муносабати билан улар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари сони ҳам ортди. Шу муносабат билан бу борада юқоридаги чекловлар ўрнатилди²¹. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 октябрдаги “Техноген, табиий ва экологик тусдаги фавқулодда вазиятларнинг таснифи тўғрисида”ги 455-сон қарorigа асосан портлашларга, ёнғинларга, транспорт воситаларининг парчаланишига, ташилаётган КТКЗМларнинг зарарли хоссалари намоён бўлишига ва одамлар ўлими (жароҳатланиши, заҳарланиши)га сабаб бўладиган **автомобиль транспортининг**

²⁰ *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 4 апрелдаги “Автомобиль йўлларида инсон хавфсизлигини ишончли таъминлаш ва ўлим ҳолатларини кескин камайитириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-190-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5937573>.*

²¹ *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 17 февралдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 90-сон қарори // <https://lex.uz/docs/562451?ONDATE=17.02.1993>.*



2-TOM, 2-SON

халокати ва авариялари, шу жумладан, йўл-транспорт ҳодисалари техноген тусдаги фавқулодда вазиятлар тоифасига киритилган²².

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 мартдаги “Транспорт воситаларини мажбурий тарзда техник кўриқдан ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 272-сон қарори билан жисмоний шахсларга тегишли бўлган ва мажбурий техник кўриққа тақдим этилмаган автомобилотранспорт воситаларининг ҳисобини юритиш, уларнинг ҳолатини аниқлаш, шунингдек, жисмоний шахсларнинг фойдаланишга яроқсиз, утилизацияга топшириладиган ёки реализация қилиш мақсадида қисмларга бўлинадиган транспорт воситаларини ҳисобдан чиқариш тартибини назарда тутувчи махсус низом тасдиқланди²³.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 июндаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 460-сон қарори билан 2020 йил 1 январдан мамлакатда ишлаб чиқариладиган барча автомобилотранспорт воситалари ички бозорга ишлаб чиқарувчи томонидан автоматик ёниб турувчи кундузги сигнал чироқлари билан жиҳозланган ҳолда чиқарилиши, шунингдек республикага чет элдан импорт қилинадиган автомобилотранспорт воситаларида кундузги сигнал чироқларининг мавжудлиги сертификациядан ўтказиш учун мажбурий техник талаб сифатида белгиланди²⁴.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 21 августдаги “Транспорт воситаларида ташишда ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 406-сон қарорига асосан 2024 йил 1 январдан бошлаб шаҳарлараро, вилоятлараро ва халқаро йўналишларда йўловчи ташувчи автотранспорт воситалари ҳайдовчиларининг иш вақти табеллар, йўл

²² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 октябрдаги “Техноген, табиий ва экологик тусдаги фавқулодда вазиятларнинг таснифи тўғрисида”ги 455-сон қарори // <https://lex.uz/docs/820617>.

²³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 мартдаги “Транспорт воситаларини мажбурий тарзда техник кўриқдан ўтказиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 272-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4263358>.

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 4 июндаги “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 460-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4366594>.



2-TOM, 2-SON

варақлари, чиптани ҳисобга олиш варақлари тахограф кўрсаткичига асосан ҳисобга олиниши назарда тутилди²⁵.

Иккинчиси – йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишга оид қарорлар. Ўзбекистон Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 5 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси йўлларида ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлаш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 539-сон қарорига биноан “Ўзбекистон Республикаси йўлларида ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлаш тўғрисида Низом” тасдиқланган бўлиб ушбу низомда Маҳаллий ҳокимият ва ижро этувчи органлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг Давлат автомобиль назорати хизматининг йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашдаги вазибалари ва ваколатлари белгилаб қўйилди. Ушбу низомда бевосита йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш бўйича айрим умумий масалалар белгиланган бўлиб бу борада аниқ ташкилий-ҳуқуқий механизмлар назарда тутилмаган²⁶.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги 2011 йил 15 ноябрдаги 303-сон қарорига асосан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш тартиби тўғрисидаги Низом тасдиқланган бўлиб унга кўра республика ҳудудида содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш, уларни келтириб чиқарадиган шарт-шароитларни таҳлил қилиш ва бартараф этиш мақсадида йўл-транспорт ҳодисаларининг ҳисоби юритилади ва таҳлил қилинади²⁷. Йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олишда уларнинг тенденциялари, миқёсларини ўрганиш жуда муҳим. Аммо ушбу ҳисоботларга фақатгина Йўл-транспорт ҳодисаси бўйича статистик ҳисоботга фақат йўл-транспорт ҳодисалари оқибатида ҳалок бўлган ёки тан жароҳати олган шахслар мавжуд бўлган ҳодисалар тўғрисидаги маълумотлар киритилади. Бизнинг назаримизда йўл-ҳаракатига оид барча ҳуқуқбузарликлар жой ва макон ҳамда уни содир этган шахсларни кўрсатган ҳолда ҳисобга олиниши ва ягона маълумотлар базасига

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 21 августдаги “Транспорт воситаларида ташишда ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 406-сон қарори // <https://lex.uz/docs/6577072>.

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 5 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси йўлларида ҳаракатланиш хавфсизлигини таъминлаш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 539-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/1015714>.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл-транспорт ҳодисаларини ҳисобга олиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги 2011 йил 15 ноябрдаги 303-сон қарорига // <https://lex.uz/docs/1899292>.



2-TOM, 2-SON

киритилиши ҳамда ана шу маълумотлар базасидан келиб чиқиб йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ташкил этилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги давлат йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматининг йўл-патруль хизмати ходимларининг хизмат фаолияти натижаларини баҳолаш тартиби ва мезонлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1044-сон қарорига биноан ҳар чораклик ишларни баҳолаш яқунларига кўра, фаолияти самарали деб топилган ДЙҲХХ ЙПХ ходимларига нисбатан лавозим маошининг 50 фоизигача миқдорда бир марталик пул мукофоти қўлланилади. Бунда баҳолаш мезонлари асосан бириктирилган ҳудуд (сектор)да одамлар ўлими ёки тан жароҳати билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаларининг юз берган ёки бермаганлигидан келиб чиқиб баҳоланиши назарда тутилган²⁸. Бу ҳужжатда ҳам йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси моддий оқибатли ҳуқуқбузарликларга нисбатан тадқиб этилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 декабрдаги “Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 975-сон қарори билан тасдиқланган Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисидаги низомга кўра йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатларини техник жиҳатдан қайд этиш масалалари белгиланди²⁹. Бу ўз навбатида йўл ҳаракати қоидаларига амал қилинишини назорат қилиш жараёнида қонунийликни таъминлашга хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 сентябрдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасидаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 747-сон қарори билан йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасида кенг жамоатчиликнинг ролини оширишга оид қоидалар белгиланди. Жумладан, жисмоний

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 26 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги давлат йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматининг йўл-патруль хизмати ходимларининг хизмат фаолияти натижаларини баҳолаш тартиби ва мезонлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1044-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4129938>

²⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 декабрдаги “Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракати қатнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 975-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4089917>.



2-TOM, 2-SON

ва юридик шахсларнинг автотранспорт воситаларига ўрнатилган видеорегистраторлар орқали қайд этилган ҳуқуқбузарлик ҳолатлари тўғрисидаги видеоёзувлар асосида ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритиш масалалари белгиланди. Шунингдек, ҳуқуқбузарлик ҳолатлари тўғрисидаги видеоёзувларни юборган шахслар ҳуқуқбузардан ундирилган жарима ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг беш фоизи миқдоридagi пул мукофоти билан рағбатлантирилиши назарда тутилди³⁰.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиш ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 701-сон қарори билан «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тарғибот куни»ни ўтказиш бўйича дастур ҳамда «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тарғибот куни» доирасида тадбирларни ташкил этиш схемаси тасдиқланган бўлиб, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этишнинг янги механизмларини жорий этди.

Жумладан, «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тарғибот куни»нида қуйидаги тадбирлар ўтказилишига эътибор қаратилади:

йўл ҳаракати иштирокчилари ўртасида йўл ҳаракати қоидаларига риоя қилиш маданиятини шакллантириш, уларнинг қонунга итоаткорлик хулқ-атворини оммалаштиришга қаратилган самарали тарғибот тадбирларини ўтказиш;

маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, бошқа давлат ташкилотлари, фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликда фуқаролар билан йўл ҳаракати қоидаларига сўзсиз риоя қилиш, шу жумладан, йўл-транспорт ҳодисалари энг кўп содир этиладиган ҳудудларда аҳоли ўртасида тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил этиш орқали тизимли чора-тадбирларни амалга ошириш;

кенг жамоатчилик иштирокида жойларда йўл-транспорт ҳодисалари билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни содир этиш сабаблари ва бунга имконият яратаётган шарт-шароитлар ҳамда уларни бартараф этиш борасида кўрилаётган чораларни танқидий муҳокама қилиш;

республика ва маҳаллий теле - ва радиоканалларда махсус телекўрсатув ва радио эшиттиришларни ташкил этиш орқали йўл ҳаракати хавфсизлиги қоидаларига риоя қилмаслик оқибатлари, пиёдалар ва транспорт воситалари ҳайдовчиларининг айби билан юз берган йўл-транспорт ҳодисалари ҳамда бу борада уларнинг

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 сентябрдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасидаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашини самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 747-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3913588>.



2-TOM, 2-SON

жавобгарлик масалаларини мунтазам ёритиб бориш орқали кенг жамоатчиликка профилактик таъсир кўрсатиш;

йўл ҳаракати хавфсизлиги ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикаси масалалари бўйича оммавий ахборот воситаларида, шу жумладан Интернет жаҳон ахборот тармоғида мақолалар, шарҳлар ва бошқа материаллар чоп этилишини ташкил этиш³¹.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 апрелдаги «Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 172-сон қарори билан Йўл ҳаракати қоидаларининг янги таҳрири тасдиқланди. Ушбу қарорда мазкур қоидаларда йўлларда хавфсиз ҳаракатланишни ташкил этишга оид муносабатлар билан бирга йўл ҳаракатининг аниқ қоидалари жорий этилди³². Аммо мазкур Йўл ҳаракати қоидалари ҳам ўз номидан «айтиб тургани»дек фақатгина йўлларда хавфсиз ҳаракатланишга оид масалаларни белгилайди. Йўллардан ташқари жойларда бу қоидалар амал қилмайди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 26 апрелдаги «Таълим муассасаларида йўл ҳаракати қоидалари тарғиботини кучайтириш чоратадбирлари тўғрисида»ги 212-сон қарорида илк марта йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот шаклидаги янги чоратадбирлар мажмуи жорий этилди. Хусусан, қарор билан йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматининг ҳудудий бошқармаларида Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим муассасалари билан ҳамкорликда хизмат олиб борадиган катта инспектори лавозимини жорий этилди, умумий ўрта ва ўрта махсус таълим муассасаларида кўнгилли ёшлар иштирокида йўл ҳаракати қоидаларини фаол тарғиб қилувчи «Йўл ҳаракати қоидалари ёш тарғиботчиси» клубини ва «Яшил чироқ» мусобақасини ташкил этиш назарда тутилди.

Шунингдек, қарор билан «Яшил чироқ» мусобақасини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби ҳам тасдиқланди. Унга кўра Мусобақанинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

«Яшил чироқ» гуруҳлари фаолиятини такомиллаштириш;

³¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиш ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириш чоратадбирлари тўғрисида»ги 701-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3888332>.

³² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 апрелдаги «Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 172-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5953883>



2-TOM, 2-SON

«Яшил чироқ» гуруҳлари аъзоларининг билим ва малакаларини ошириш;
болаларга кўча ва йўлларда юриш қоидаларини кенг тарғиб қилишда энг яхши
иш тажрибаларини ўрганиш, тўлдириш ва оммалаштириш;
болалар онгида «Йўл ҳаракати қоидалари»га қатъи риоя қилиш ҳиссини
шакллантириш³³.

Учинчиси – йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг
институционал асосларини такомиллаштиришга қаратилган қарорлар. Ўзбекистон
Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 3 августдаги «Йўл-патруль хизмати
алоҳида батальонини ташкил қилиш ва тошкент шаҳрининг магистрал кўчаларида
ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 396-
сон қарорига асосан Тошкент шаҳрининг транспорт қатнови зич бўлган магистрал
кўчаларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида Тошкент шаҳрининг Ички
ишлар бош бошқармаси Давлат автомобиль назорати бошқармасининг мавжуд йўл-
патруль ротаси негизида йўл-патруль хизмати алоҳида махсус батальони ташкил
этилган³⁴.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 майдаги
«Ўзбекистон Республикаси йўл хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада
такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 377-сон қарорига асосан
туғатиладиган йўл-патруль хизматининг стационар постлари ва патруль пост хизмати
постлари ҳамда фаолиятни давом эттирадиган йўл-патруль хизматининг стационар

³³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 26 апрелдаги «Таълим муассасаларида йўл ҳаракати қоидалари тарғиботини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 212-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5982655>.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 3 августдаги «Йўл-патруль хизмати алоҳида батальонини ташкил қилиш ва тошкент шаҳрининг магистрал кўчаларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 396-сон қарори // <https://lex.uz/docs/1653776>.



2-TOM, 2-SON

постлари ва патруль пост хизмати постлари рўйхатини тасдиқланган бўлиб, жами 59 та постларга ўз фаолиятини давом эттиришга рухсат берилди³⁵.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг институционал асослари турли қонунчилик ҳужжатларида тарқоқ ҳолда белгиланган ва асосан йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олишга қаратилган.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси чора-тадбирлари тизимида йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид махсус чоралар белгиланмаган. Ҳозирги вақтда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси асосан пиёдалар ўртасидаги тарғибот чораларидан бўлиб қолмоқда.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасининг шакллари, усуллари ва мазмунига оид номалар миллий қонунчилигимизда мавжуд эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Хўжакулов С.Б. *Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: генезеси, назарияси ва амалиёти: юрид. фан. док. дисс. – Т. 2023. Б.52.*
2. Рахимов К.М. *Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимининг назарий-ҳуқуқий жиҳатлари: юрид. фан. бўй. фалс. докт. дисс. Автореф. – Т. – 2022. Б.13.*
3. *Ўзбекистон Республикасининг “Автомобиль йўллари тўғрисида”ги 2007 йил 2 октябрдаги қонуни // <https://lex.uz/docs/1254490>.*
4. *Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси // <https://lex.uz/docs/2153411>.*

³⁵ *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 майдаги “Ўзбекистон Республикаси йўл хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 377-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3743453>.*



2-TOM, 2-SON

5. Ўзбекистон Республикасининг “Ўқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // <https://lex.uz/docs/2387357>.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиши ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириши чора-тадбирлари тўғрисида”ги 701-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3888332>.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 12 апрелдаги “Йўл ҳаракати қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 172-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5953883>
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 сентябрдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасидаги ўқуқбузарликларга қарши курашиши самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 747-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3913588>.



2-TOM, 2-SON

O'ZBEKISTON GEOGRAFIK O'RNINIG QULAYLIGI

Xolpo'latov Sahobiddin Yusuf O'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annostatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning geografik o'rni, relyefi baland nuqtasi, eng past nuqtasi haqida ma'lumot berilgan. Har bir mamlakat taraqqiyoti birinchidan, shu mamlakat geografik joylashuvi, tabiiy boylik va imkoniyatlari bilan, ikkinchidan shu mamlakat xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy ongi yuksalish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan xalqning mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, munosib islohotlarni, yangiliklarni o'z vaqtida amalga oshirishga doir bilimlarini oshirishda geografiya va iqtisodiyot fanlarining o'rni beqiyosligi haqida ham qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'z. O'rta Osiyo, Amudaryo, Yevrosiyo, Hind okeani, Hind okeani, Turon, Pomir, Tyanshan, Hazrati sulton, Monblan, Chirchiq, Amudaryo, Sirdaryo.

УДОБСТВО ГЕОГРАФИЧЕСКОГО РАСПОЛОЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье представлена информация о географическом положении Узбекистана, его высшей и низшей точке. Развитие каждой страны определяется, во-первых, ее географическим положением, природными ресурсами и возможностями, во-вторых, уровнем социально-экономического и правового сознания ее народа. С этой точки зрения также кратко обсуждалась роль географии и экономических наук в повышении знаний людей по эффективному использованию существующих возможностей, своевременному осуществлению соответствующих реформ и инноваций.

Ключевое слово. Средняя Азия, Амударья, Евразия, Индийский океан, Индийский океан, Туран, Памир, Тянь-Шань, Хазрат Султан, Монблан, Чирчик, Амударья, Сырдарья.

Kirish. O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo orasida joylashgan. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli sharqida bo'lib, $45^{\circ} 36'$ shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg'og'ida bo'lib, $37^{\circ} 11'$ shimoliy kenglikda. Eng g'arbiy nuqtasi Ustyurt platosida bo'lib, $56^{\circ}00'$ sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa Farg'ona



2-TOM, 2-SON

vodiysining sharqiy qismida, $73^{\circ} 10'$ sharqiy uzunlikdadir. O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa 925 km ga, eng g'arbiy nuqtasi bilan sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1400 km ga teng. O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra O'rta dengiz bo'yidagi Ispaniya, Italiya, Gretsiya kabi mamlakatlar bilan taxminan bir geografik kenglikda joylashgan. Lekin O'zbekiston Yevrosiyo materigining ichki qismida okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi tufayli subtropik okrugdan farq qiladi. Buning ustiga Hind okeanidan kirib keladigan nam va iliq havo oqimlarini tog'lar to'sib turadi. Aksincha, shimoliy qismi ochiq bo'lganligi tufayli sovuq havo oqimi bimalol kirib keladi. Natijada, O'zbekiston subtropik mintaqada joylashsa-da, cho'lga xos bo'lgan tabiiy sharoit (yozi bulutsiz, serquyosh, jazirama issiq va quruq, qishi esa nisbatan sovuq) vujudga keladi. O'zbekiston chegarasining ko'p qismi tekisliklar, ozroq qismi adir va tog'lar orqali o'tadi. Respublikamiz shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, sharqda Qirg'iziston bilan, janubi sharqda Tojikiston bilan, janubi g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Janubda O'zbekiston Surxon-Sherobod vodiysida Afg'oniston bilan (Amudaryo orqali) chegaradoshdir.

Asosiy qism. O'zbekistonning eng baland nuqtasi Surxondaryo viloyatida joylashgan Hazrat Sulton cho'qqisidir. Uning balandligi dengiz sathidan hisoblaganda **4688** metrni tashkil etadi. Ushbu cho'qqi Hisor tog' tizmasidagi suvayirg'ichning janubiy qismida, Kishtut daryosining boshlanish qismida joylashgan. Cho'qqi atrofdagi hududlardan tik qurumli qoyalar hosil qilib ko'tarilgan. Cho'qqining yonidan oqib o'tuvchi va shu hududdan boshlanuvchi daryolar havzasida abadiy qor va muzliklar yastanib yotibdi. Hazrati Sulton cho'qqisi Evropadagi eng baland Monlban cho'qqisidan **120** metr pastroq.

O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv.km bo'lib, kattaligi jihatidan O'rta Osiyoda Qozog'iston va Turkmanistondan keyingi o'rinda turadi. O'zbekiston maydoni Yevropadagi Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston hududi Belgiya, Niderlandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonini qo'shib hisoblasak ham, ulardan 4 marta, Shveysariyadan 10 marta, Belgiyadan 14 marta katta. U maydonining kattaligi boyicha jahondagi 165 dan ortiq mamlakatdan oldinda turadi. Poytaxti Toshkent shahri.



2-TOM, 2-SON



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining geografik joylashishi.

Toshkent - Markaziy Osiyoning eng yirik qadimiy shaharlaridan biri - O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. O'rta Osiyoning yirik sanoat-transport chorraxasi va madaniyat markazlaridan biri. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan tog'lari etaklarida, 440–480 m teppalikda, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan.

Hozirda Ozbekiston Respublikasi hududi Qoraqalpogiston Respublikasi va 12 ta viloyat - Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent, Fargona, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlariga ajratilgan.

Viloyatlar har birining maydoni 4 ming kv.km.dan 111 ming kv.km.gacha kattalikka ega. Ozbekiston asosan Amudaryo bilan Sirdaryo oraligida joylashgan. Uning maydonini tabiiy sharoiti va boyliklariga kora, shuningdek xojalikdagi ahamiyatiga kora chol (tekislik), adir (tog oldi), tog va yaylov (baland tog)ga bolish mumkin. Ular iqlim, tuproq, osimlik va hayvonot olami hamda foydali qazilmalar turi va kolami jihatdan bir-biriga oxshamaydi. Chollar mintaqasida xilma-xil foydali qazilmalar topilgan. Jumladan, 50 dan ziyod neft koni, gaz, ozakerit, oltingugurt, oltin, uranning sanoatbop zaxiralari aniqlangan. Gazning aniqlangan zaxirasi 2 trillion mkub. dan ziyod. Zarafshon etagidagi Dengizkol va Toybekatonda kaliy tuzlarining yirik zaxiralari mavjud. Qoraqalpogiston Respublikasidagi Sulton Uvays tog'larida Surxandaryo vodiysida va Qizilqumda fosforit konlari bor. Oltingugurt, natriyli va magniyli tuz konlari kimyo sanoatining muhim xomashyosidir. Shagal, qum singari binokorlik material cholda juda kop uchraydi. Adirlardan oltin, neft, gaz, komir singari foydali qazilmalar topilgan. Namangan, Andijon, Fargona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi neft konlari aksariyati adirlarda joylashgan. Tog'lardan koplak foydali qazilmalar topilgan. Ohangaron vodiysi atrofidagi tog'larda otga chidamli



2-TOM, 2-SON

ioy, toshkomir, mis rudasi , oltin konlari aniqlangan . Nurota tog'larida marmar (Gozgon marmari), volfram konlari bor .

Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo'lmayd. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda kattadir . Transport iqtisodiyotga xizmat qilish bilan birga ko'p miqdorda elektr energiya , yoqilg'I , metall , yog'och talab etadi . Bizning davrimizga kelib transportning quruqlik (temir yo'l , avtomobil transporti) , suv (dengiz va daryo) , havo , quvur va electron (elektr uzatish liniyalari) transporti turlari vujudga keldi . Mamlakatimizda hozirgi zamon transportining deyarli barcha turlari bor . O'zbekistonda barcha turdagi transportda har yili tashiladigan yuklarning asosiy qismini paxta tolasi , mineral o'g'itlar , har xil mashinalar , boyitilgan ruda, qora va rangli metallar , neft mahsulotlari , binokorlik materiallari va keng iste'mol mollari tashkil etadi. Temir yo'l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramay hamma vaqt ishlataveradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tan narxi nisbatan past.

Temir yo'l magistrallarini turli tomonga qurish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz temir yo'llarining umumiy uzunligi 3.8 ming km dan ortadi. Avtomobil transporti. Bu transport istalgan tomonga bora oladiga transportdir. U yuklarni bevosita iste'molchiga etkazib bera oladi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport bilan bog'laydi, shaharlardagi va shaharlar atrofidagi yuklarning asosiy qismini tashlaydi. Qisqa va uzoq masolarga yo'lovchi hamda yuk tashishda temir yo'llarga qaraganda avtomobil afzaldir. Mamlakatimizning tog'li rayonlarida avtomobil transportining ahamiyati ayniqsa katta. Havo transportining eng qimmat va shu bilan bizga eng tez harakatlanadigan hamda joy relefiga kam bog'liq bo'lgan turidir. O'zbekistonda havo transporti yo'lovchi (har yili 6mln. dan ortiq kishi) tashish jahatdangina emas, balki har xil yuk tashish jihatdan ham ahamiyatlidir. Mamlakat mahalliy havo yo'llarining uzunligi 60 000 km dan ortiq. Quvur transpotidan asosan gaz va qisman neft tashishda foydalaniladi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyat markazlariga gaz quvurlari o'tkazilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan ratsional foydalanish. T. 1982
2. Arifxonova M. Rastitelnost Ferganskoy dolinO' T.1967.
3. Babushkin L.N., Kogay N.A. Sostoyanie voprosa o fiziko-geograficheskom Rayonirovanii Sredney Azii i Uzbekistana. Nauchno'e trudo' Vo'p. 231. Voproso' geograficheskogo Rayonirovaniya Sredney Azii i Uzbekistana. T. 1964.



2-TOM, 2-SON

4. Baratov P. O'zbekistondaryolari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati. T. 1967.
5. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. «O'qituvchi» nashri. T. 1991.
6. Baratov P. Sultanov YU. Tabiiy geografiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari. T. 1984.
7. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T. 1996.
8. Baratov P., M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T.2002.
9. Balashova. E.N Klimaticheskie opisanie respublik Sredney Azii. Gidrometeoizdat. M. 1960.
10. Bogdanov O.P. JivotnO'e Uzbekistana. T. 1978.
11. Buro'gin V.A., Marininkovskaya M.I. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish. T. 1980.
12. Sabirova Nasiba Ergashevna. (2023). THE GENESIS OF BAKHSH PERFORMANCE IN THE KHOREZM REGION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 14, 134–138. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/616>
13. Gvozdetskiy N.A. Sredneaziatskaya gornaya strana. V.kn. Fizikogeograficheskoe Rayonirovanie 1968.
14. Genusov A.Z.. Pochvenno – klimaticheskoe Rayonirovanie Sredney Azii. T. 1965.
15. Сабирова, Н. Э. (2021). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА ХАЛФА ХОРЕЗМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР (pp. 387-390).
16. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов центральной ферганской пустыни. "Экономика и социум" №7(98) 2022.-378 б.
17. Сабирова, Н. Э. (2018). ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛОВ ОБРЯДОВЫХ ПЕСЕН, СВЯЗАННЫХ С ДРЕВНИМИ КУЛЬТАМИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 73-74).
18. Uktamov Urayimjon Shavkatjon o'g'li, & Xatamova Durдона Xatamjon qizi. (2023). Markaziy osiyo mintaqasida suv resurslaridan foydalanishning transchegaraviy masalalari. Golden brain, 1(2), 274–279.



2-TOM, 2-SON

NEYROSENSOR ESHITISH PASAYISHINI KONSERVATIV DAVOLASH
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Davronova Gulrux Baxtiyorovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

1 son Otorinolaringologiya kafedrası v.b.b. docenti

Davronova.gulrux@mail.ru

Tashboev Qaxramon Jumaniyoz O'g'li

SamMU pediatriya fakulteti 5 kurs talabasi

toshboyevqahramon462@gmail.com

So'nggi 10 yil ichida sensonevral eshitish pasayishi tarkibida 50% gacha bo'lgan eng katta o'ziga xos tortishish eshitish qobiliyatini yo'qotishdir. Patogenezning bir bo'g'ini ichki quloqning mikrosirkulyatsiyasi, eshitish analizatorining kortikal uchidagi o'zgarishlar hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: - qon tomir genezli I-II darajali SNEP bilan og'rigan bemorlarda koxleovestibulyar funktsiyalarning buzilishini davolashda kavinton yordamida tomir ichiga ozon terapiyasining samaradorligini o'rganish.

Materiallar va usullar: VBKTTM Lor bo'limida 24 ta ambulator ravishda davolanagan bemorlar kuzatildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 12 yoshdan 25 gacha. Bemorlarda kavinton bilan vena ichiga ozon terapiyasining samaradorligini klinik va neyrofiziologik o'rganish uchun otonevrologik va nevrologik holat, qisqa patentli eshitish sabablari miya potentsiallari (QPES), tonal audiometriya, kompyuter reoensefalografiyasi (KREG) o'tkazish orqali o'rganildi. Bemorlar davolanishni boshlashdan oldin, 2,0 ozonlangan kavintonni tomir ichiga yuborishdan 40-50 minut o'tgach tekshiriladi. Davolash samaradorligini oshirish uchun, umumiy qabul qilingan usullar bilan bir qatorda, kuniga 5-7 marta 1000 mkg/l konsentratsiyasida 400 ml vena ichiga OFR infuziyalaridan foydalanishni taklif etdik.

Bemorni qayta tekshirishning samaradorligini nazorat qilish va preparatning dozasini aniqlash uchun, uning nojo'ya ta'sirini istisno qilish uchun infuzion ozon terapiyasi + kavinton boshlanganidan 2 hafta o'tgach amalga oshirildi. Kuzatilganlarning barchasida umumiy holat yaxshilandi, 14 (58,3%) bemorda - quloq shovqinining intensivligi kamaydi, 3 (12,5%) bemorlar davolanish fonida quloq shovqinining o'ziga xos o'zgarishi aniqlandi. Bemorlar tomonidan sub'yektiv ravishda qabul qilingan shovqin oldin davolash boshlanishi monofonik sifatida, boshida biroz kuchaytirilgan, "bo'lingan" xarakterni (turli xil



2-TOM, 2-SON

tonalliklarni) qabul qilgan. Keyin, 1,5 - 2 haftadan so'ng, u asosan past chastotali komponent tufayli kamaydi va 3-4-haftaning oxiriga kelib u beqaror bo'lib qoldi, ertalab deyarli bezovta qilmadi, faqat tushdan keyin psixo-emotsional va jismoniy zo`riqishdan keyin kuchaydi. Bu, ehtimol, mikrosirkulyatsion kanal tomirlari darajasida VBHda miya qon aylanishining asta-sekin yaxshilanishi bilan bog'liq.

Kavinton yordamida infuzion ozon terapiyasining samaradorligi, eshitish analizatorining ildiz bo'limlari darajasida vertebro bazilar havzasida miya qon aylanishining yaxshilanishi bilan bog'liq. Kavintondan foydalangan holda infuzion ozon terapiyasining quloq shovqini va nutqning ravshanligi darajasiga ta'siri bemorlarning psixo - emotsional fonini, ularning ish faoliyatini va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI:

- 1) A.M.Shamsiyev N.J.Xushvaqova “Otorinoloringiologiya” Toshkent 2019-yil
- 2) S.A.Xasanov N.X.Voxidov “Otorinoloringiologiyada zamonaviy tekshirish usullari” Toshkent 2019-yil
- 3) Q.Q.Qosimov “Otorinoloringiologiya” Toshkent 2019-yil



2-TOM, 2-SON

ORTTIRILGAN SENSONEVRAL ESHITISH PASAYISHINI KOMPLEKS
DAVOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Davronova Gulrux Baxtiyorovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 1 son Otorinolaringologiya kafedrası v.b.b.

docenti Davronova.gulrux@mail.ru

Tashboev Qaxramon Jumaniyoz o'g'li

SamDTU Pediatriya fakulteti 5 kurs talabasi toshboevqahramon462@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi: So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida karlar va eshitish qobiliyati past bo'lgan odamlar soni doimiy ravishda oshib bormoqda.

Ushbu tadqiqodning **maqsadi** orttirilgan neyrosensor qattiqquloqlik aniqlangan bemorlarni kompleks davolashda sitoflavin preparatining ta'sirini baholash.

Material va tekshirish usullari: Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-klinikasi va SVBKTTM LOR bo'limlarida 12-18 yoshgacha bo'lgan 32 nafar bolalar, 19-45 yoshgacha bo'lgan 57 nafar anamnezidan ototoksik dori vositalari olgan bemorlar va ularning tibbiy kasalliklar tarixi o'rganilgan.

Davolash rejasiga asosan bemorlar guruhlariga ajratildi: o'tkir neyrosensor eshitish pasayishi (O'NSEP) va surunkali neyrosensor eshitish pasayishi (SNSEP), har bir guruh tadqiqot va taqqosiy guruhlariga bo'lindi. O'NSEP bemorlarga GKS standart puls terapiya sutkada ≥ 250 mg dozada 5 kun davomida– xususan kattalar tana vazniga 2 mg/kg, hisob prednizolonga olib borildi. Neuroprotektor (antigipoksant va antioksidant) sifatida sitoflavin - 10 – 20 ml (0,15 ml/kg) hisobidan v/iga tomchilab, 0,9 % li natriy xlor eritmalarida sutkasiga ikki marta, 10 kun kurs bilan yuborildi. SNSEP bemorlarga elektroakustik korreksiya va **sitoflavin kombinirlangan vositasi ishlatildi**.

Shunday qilib, davolashdan keyingi tadqiqot tahlili O'NSEP mavjud bemorlarda o'tkazilgan davolash-tashxisotini olib borish kompleksining kasallik boshlanishidan keyin erta muddatlarda, tadqiqot guruhida 72,4% hollarda yaxshilanishi, qiyosiy guruhda esa 11,1% hollarda yaxshilanish holati kuzatildi. Bunda eshitish bo'sag'asining to'liq tiklanishi, uni bo'sag'alarining me'yorga kelishi taqqoslash guruhida 5,9 hollarda bo'lsa, tadqiqot guruhida 58,8% hollarni tashkil etdi.

Sitoflavinning qo'llanilishi surunkali NSEP bemorlarni davolashda, A1555G mitoxondrial genining mutatsiyasi bo'lmaganda, profilaktik davo uchun eshitish bo'sag'alari barqarorligini ushlab turish maqsadida samarali bo'lib hisoblanadi, A1555G mutatsiyasining mavjudligi eshitish pasayishining rivojlanish omili hisoblanadi, bu esa



2-TOM, 2-SON

elektroakustik korreksiyani o'tkazishni, keyinchalik esa kelajakda koxlear implantatsiyani rejalashtirishni talab etadi. Standart davolash o'tkazilgan guruhda ifodalangan statistik ahamiyatli o'zgarishlar aniqlanmagan, ammo, shuni hisobga olish lozimki, monoterapiya ham iqtisodiy jihatdan, ham tibbiy jihatdan afzal sanaladi, chunki bir necha vositalarni qo'llash xarajatli va qiyin jarayon bo'lib, hamma vaqt ham ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, orttirilgan neyrosensor eshitish pasayishining nafaqat klinik shakllarini, balki uning kelib chiqishi va etiopatogenetik rivojlanish tamoyillarini ham belgilaydigan davolash va tashxislash algoritmi davolash tadbirlarini va irsiyatga bog'liq shakllarida profilaktika usullarini aniqlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO'YXATI:

- 1) A.M.Shamsiyev N.J.Xushvaqova "Otorinoloringiologiya" Toshkent 2019-yil
- 2) S.A.Xasanov N.X.Voxidov "Otorinoloringiologiyada zamonaviy tekshirish usullari" Toshkent 2019-yil
- 3) Q.Q.Qosimov "Otorinoloringiologiya" Toshkent 2019-yil



2-TOM, 2-SON

COMPARATIVE DIAGNOSIS AND TREATMENT METHODS OF TYPE 1 AND
2 DIABETES

**Khamdamov Botirjon Nusratullo oqli, Khaydarov Ogabek Ulugbek oqli, Sanayeva
Sumbul Baxtiyorovna**

4th year students of the faculty of Pediatrics Samarkand State Medical University students

Gaybullayev Kamronbek Fakhriddin oqli

4th year student of the faculty of Folk Medicine

Qodirov Javokhir Jasurbek oqli

2nd year student of the faculty of Pediatrics

Farmonov Samandar Anvar oqli

3rd year student of the faculty of Treatment

Abstract. In this article, the causes and complications of diabetes mellitus and its 1st and 2nd types are described in detail, and the comparative diagnosis of these two types is written.

Key words: diabetes, diagnosis, analysis, diagnosis, treatment, initial symptoms, etc.

Diabetes mellitus (lat. diabetes mellitus, "sugar disease") is a group of endocrine diseases associated with impaired glucose absorption and resulting in a relative or absolute deficiency of the insulin hormone. As a result of this, hyperglycemia is observed - a steady increase in the amount of sugar in the blood. The disease is characterized by chronic delay, as well as carbohydrate, fat, protein, mineral and water-salt metabolism disorders. Diabetes is the most common chronic disease in developed countries today. The number of such patients is increasing every year in all countries of the world. Diabetic patients are mainly bothered by symptoms such as thirst, frequent urination, weight loss, lack of appetite, and fatigue. Patients with the above-mentioned complaints should be examined by an endocrinologist immediately. In modern medicine, the severity of the disease and the presence or absence of complications are taken into account when choosing drugs. For example, if the patient lacks insulin due to heredity at a young age, insulin is sent to replace it. Elderly and overweight people need to follow a diet according to the doctor's recommendation when there is a relative lack of insulin. Blood sugar lowering agents are used. A diet is often prescribed when the disease subsides. Carbohydrates are consumed less, instead of them you can eat meat, black bread and other products. The amount of fatty foods is limited.



2-TOM, 2-SON

When the disease worsens, the patient is not given butter and other fatty products. Almost 20 percent of food calories should consist of proteins. Food products consumed by a sick person should be rich in vitamins, especially vitamins of group C and B. The patient should eat food in portions. Patients who follow the doctor's strict supervision must strictly follow the recommendations regarding the daily routine and diet, and must come to the laboratory examination on time. Today, diabetes is considered a natural disease. According to experts of the World Health Organization, diabetes is a metabolic disorder. It is caused by observation of an irreversible condition in a certain part of the pancreas. The pancreas is located behind the stomach, in front of the 1st, 2nd lumbar vertebrae. Length 10-15 cm, thickness 2-3 cm, weight 70-100 grams. The pancreas consists of 3 parts: head, body, tail. The main part of the pancreas is the exocrine secretory apparatus, which mainly produces the main parts of the pancreatic juice. 1-3% of the gland is the endocrine part, that is, islets of Langerhans (up to 1-1.5 million). The diameter of each is 150 μm . There are 80 to 200 cells in one islet. There are several types of cells in the islets of Langerhans: A - glucagon makes up 25%; B - located in the center of insulin, makes up 60-70%; D - somatostatin makes up 10%, the rest makes up 5% and produces VIP (Visoactive interstitial polypeptide, gastrointerstitial polypeptide). Insulin is a highly active chemical substance (hormone) that accumulates and is grouped into islets. A person uses energy to live, move and work. It gets energy from food. Energy is produced as a result of metabolism. Carbohydrates and fats are the main source of energy. Bread, cereals, dairy products, fruits and vegetables contain a lot of carbohydrates. A part of the glucose entered through food is absorbed into the cells with the help of insulin. Insulin can be compared to a key that opens a cell lock. Part of the glucose used for energy production is converted into glycogen with the help of insulin and is stored in the liver and muscles as an energy reserve.

As a result of severe stress, a lot of stress, severe fear, these cells can be blocked and cannot be restored. As a result, insulin release decreases. This leads to an increase in the amount of sugar in the blood. The normal amount of sugar in the blood of a healthy person is 80-120 mg%. In case of diabetes, its amount can increase to 150-250 mg% and even more. When the amount of sugar in the blood is normal, it is not excreted through the kidneys with urine, that is, there is absolutely no sugar in the urine of a healthy person. When the amount of sugar in the blood exceeds 140 - 150 mg%, it starts to be excreted in the urine. At such a time, a person becomes thirsty quickly and consumes a lot of water. Carbohydrates in the eaten food are not absorbed by the cells and tissues, but are excreted in the urine. Otherwise, the fat reserves under the skin will break down and turn into glucose, and even the protein and fat substances in the cells and tissues will turn into glucose, pass into the blood and be



2-TOM, 2-SON

excreted with urine. As a result, the patient becomes weak, weak, and the ability to work decreases. Diabetes occurs in 15% of the population of our republic, they regularly eat diet food and drink drugs that reduce the amount of sugar in the blood. Regardless of the medications taken, a person with diabetes should follow a diet, follow a healthy lifestyle, give up harmful habits, engage in light physical work or physical education, observe personal hygiene, take care of himself. In order to be able to choose a profession, and most importantly, to receive reasonable treatment, to maintain his ability to work and health for a long time, he should have medical knowledge and culture about this disease. High blood sugar can lead to serious complications, which can sometimes take years to appear. These complications are called late complications and they damage vital organs such as eyes, nerves, kidneys, and blood vessels. Sometimes a late complication can be detected even in diabetes that is detected for the first time. Only normalization of blood sugar can prevent the development of late complications of diabetes. To determine the presence of complications of diabetes, it is necessary to undergo a full examination.

For this reason, body weight at the age of 25 was accepted as normal weight. Everyone should be able to maintain the weight of this age until the end of life. The pancreas, which is already adapted to deliver insulin to the weight of this age, naturally cannot deliver more than this. As a result, sugar metabolism goes out of control. Due to the lack of insulin, excess sugar that is not used or absorbed by the body accumulates in the blood. The amount of sugar in the blood increases and exceeds its normal limit and begins to be excreted through urine. The more sugar accumulates in the blood, the more water you drink and the more you urinate. Thus, the main symptoms of diabetes are known as drinking a lot of water (thirst) and urinating a lot. At the same time, poor absorption of sugar by the body due to low production or lack of insulin also causes the patient to feel hungry. But the patient cannot eat a lot of food, because the food cannot be digested due to the lack of insulin, the patient begins to lose weight. It is clear that all symptoms of diabetes mellitus are interconnected and mediated by a single pathophysiological chain. This chronic, long-lasting disease damages important organs, tissues and blood vessels and shows them its complications. First of all, this is seen in the activity of the nervous system. Limbs ache, ache or heat up. The perception of pain decreases, a complication of the disease called polyneuropathy develops. It destroys the kidney function, as a result, the kidneys are unable to perform their tasks. Eyesight decreases, as a result of a decrease in the body's immune system, purulent wounds on the skin, serious diseases (painless myocardial infarction, etc.), and blackheads develop on the legs. As you can see, diabetes is dangerous with its complications.



2-TOM, 2-SON

LITERATURES:

1. Бутрова С.А. От эпидемии ожирения к эпидемии сахарного диабета // Междунар. эндокринолог. журнал – 2013. № 2 (50)
2. Лолтарёв С.С., Курцина И.Т. Физиология пищеварения. Учебн. Пособие. М.: “Высшая школа”. 1984. –С. 87-100.
3. Мак-Мюррей У. Обмен веществ у человека. М.: “Мир”, 1980. –С. 35.
4. Матохина З.П. Основы физиологии питания, гигиены и санитарии. Учебник. Москва, 2002. –С. 198-233.
5. Ибрагимов Тахир «Можно ли побороть сахарный диабет» Ташкент-2019 148 б
6. Мамадалиева З. Р. Саидмуродова З. Значение микроэлементов в живых организмах. Самарканд-2015 год 34 б
7. Сабирова Р, А. Биологическая химия. Ташкент, Ижод печать. 2020



2-TOM, 2-SON

KO'P O'RAMLI FERROMAGNIT TOK O'ZGARTIRGICHLARINING
MINERAL XOM ASHYOLARNI QAZIB OLISH VA QAYTA ISHLASHDAGI
ROLI

Y.Yu. Shoyimov- TDTU OF PhD

A.S. Tog'ayev- TDTU OF Katta o'qituvchi

F.Z. Abduraxmonova- TDTU OF 5-23 KEM guruh talabasi


Qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida CBIII -250 MHA burg'ulovchi qurilmalarning tok o'tkazuvchi va qabul qiluvchi elementlarini nazorat qilish va boshqarish jarayonlarida tok transformatorlari qo'llaniladi. Lekin bu tok transformatorlarini quyi va yuqori chegaralari bitta diapazonda o'lchash imkoniga ega, shu nuqtai nazardan biz taklif etayotgan ferromagnit tok o'zgartirgichlari (FMTO') quyi chegarasini o'zgartirish hisobiga o'lchash diapazonini roslash imkoniyatini yaratish, o'lchash qurilmalarining sezgirligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki transformator ferromagnit tok o'zgartirgich (FMTO') larida o'lchash chegaralarini roslash, asosan, chulg'amlar o'ramlar sonini roslash yoki birlamchi chulg'am zanjirida o'zaro qarama-qarshi yo'nalgan magnit yurituvchi kuch (MYuK) larni hosil qilish va ularning qiymatlarini roslash bilan amalga oshiriladi. Bu ikkala usulda ham birlamchi zanjir manbadan ajratilishi yoki kontaktli roslash (kommutatsiya yuz berishi bilan) amalga oshiriladi. Bu esa, tabiiyki, ishlab chiqarish sharoitida ma'lum noqulayliklarga olib keladi.

1-rasmda diapazoni birlamchi zanjirini elektr energiyasi ta'minotidan uzmasdan va kontaktsiz roslash imkoniyatiga ega bo'lgan yangi transformator FMTO' ning konstruktiv sxemasi keltirilgan [1]. FMTO' qo'zg'almas ko'p o'ramli quvur shaklida nomagnit va izolyatsion materialdan yasalgan o'zak 1, unga o'ramlarining soni ma'lum funksional qonuniyat bilan o'zgargan holda o'ralgan birlamchi chulg'am 2, qo'zg'aluvchan ferromagnit magnit o'tkazgich 3 dan tashkil topgan bo'lib, magnit o'tkazgich 3 umumiy o'q 4 atrofida shtanga 5 yordamida aylanish asosida o'zak 1 bo'ylab harakatlanish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, o'zgartirgich o'lchash chulg'ami 6 va quvur o'zak 1 ning qo'zg'aluvchan magnit o'tkazgich 3 joylashgan joyida magnit maydoni yordamida ushlab turiladigan ferromagnit suyuqlik 7 kabi elementlarni ham o'z ichiga oladi.



2-TOM, 2-SON



1-rasm. Diapazoni kontaktsiz rostlanadigan transformator FMTO‘ konstruktiv sxemasi:

a – umumiy ko‘rinishi; b – o‘lchash chulg‘amli qo‘zg‘aluvchan magnet o‘tkazgich tuzilishi

Birlamchi chulg‘am 2 ko‘p o‘ramli o‘zak 1 ga shunday o‘ralganki, undagi o‘ramlar sonining solishtirma qiymati o‘zakning bir uchidan uning ikkinchi uchiga tomon ortib boradi. Bu FMTO‘ kichik quvvatli va havo oralig‘iga ega bo‘lgan laboratoriya tok transformatorlari turkumiga mansub.

Yaratilgan ushbu FMTO‘ quyidagicha ishlaydi. Birlamchi chulg‘am 2 dan o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan o‘zgaruvchan tok o‘tganda uning atrofida hosil bo‘lgan o‘zgaruvchan magnet oqimi ikkilamchi chulg‘am 6 da o‘zgaruvchan EYuK ni induksiyalaydi. Ikkilamchi chulg‘am yuklamaga ulangan bo‘lganligi sababli unda paydo bo‘ladigan ikkilamchi tok xuddi tok transformatorlaridek birlamchi tokga proporsional bo‘ladi.

Xulosa

1. Toki o‘lchanadigan birlamchi chulg‘am o‘ramlari sonini uzunlik (yoki burchak) bo‘ylab ma‘lum qonuniyat bilan funksional taqsimlangan, ikkilamchi chulg‘amni esa birlamchi chulg‘am bir qismini o‘rab olgan va siljish imkoniyatiga ega qilib yasash tok o‘zgartirgich quyi chegarasini o‘zgartirish hisobiga o‘lchash diapazonini rostlash imkoniyatini yaratishi aniqlandi.

2. Tokli o‘tkazgich(shina)ni o‘rab turuvchi magnet o‘tkazgichni o‘ramlarining soni rostlanadigan ko‘p o‘ramli ferromagnet o‘zak ko‘rinishida yasash ferromagnet tok o‘zgartirgich sezgiriligini oshirishi va uning quyi chegarasini o‘zgartirish hisobiga o‘lchash diapazonini rostlash imkoniyatini yaratishi aniqlandi



2-TOM, 2-SON

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Патент РУз. №03316. Многооборотный компенсатор переменного тока/Амиров С.Ф., Турдибеков К.Х., Шойимов Й.Ю., Саттаров Х.А., Хушбоков Б.Х.//Расмий ахборотнома. – 2007. – №3.

2. Шойимов Й.Ю. Анализ магнитных сепей датчиков тока с многовитковыми сердечниками//Журнал: «Ссиенсе Тиме». Казан, 2021, №3 (87). – С. 71-77.

3. Murotov G'.G'. , Shoyimov Y. Yu., Maxamadjanov R. K., Tog'ayev A.S. Monitoring the parameters of the operating mode of high voltage electrical networks. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 11 , November 2020

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Aawp8i4AAAAJ&citation_for_view=Aawp8i4AAAAJ:u-x6o8ySG0sC

4. Шахноза Шухрат Кизи Маткасимова, Камолжон Эшниёз Угли Эшонкулов, Ахрор Саъдулло Угли Тогаев, Акмал Бекмуродович Пардаев. Технологические аспекты процесса бурения скважин трехшарошечными долотами в условиях разреза «Ангренский».

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Aawp8i4AAAAJ&citation_for_view=Aawp8i4AAAAJ:9yKSN-GCB0IC

5. Shoyimov Y.Yu., A.S.Tog'ayev, A.B.No'monov, O.A.Shodiyev. Konveyer transporti elektr yuritgichini himoyalashda tok datchiklarining ahamiyati.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Aawp8i4AAAAJ&citation_for_view=Aawp8i4AAAAJ:IjCSPb-OGe4C



2-TOM, 2-SON

PRAGMATIK KOMPETENSIYANI KORPUSLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI MODELINI QURISH

Sakbaeva Vitaliya Vladimirovna

Head of the Uzbek language and literature department Termez institute of engineering and
technology

sakbaevavitavladimirovna@gmail.com

Annotatsiya Pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishning samarali modelini qurish vazifalaridan biri hisoblangan ushbu tadqiqot doirasida o'zimizning ta'lim modelimizni yaratish uchun tadqiqotning metodologik asosi, dastlabki shart-sharoitlarni, hamda asosiy maqsadini aniqlab olish lozim.

Kalit so'zlar: korpusli texnologiyalar, pragmatik kompetensiyasini shakllantirish, metodik model, lisoniy-didaktik potensial, ijtimoiy-madaniy component.

Talabalarning pragmatik kompetensiyasini korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishning metodik modelini yaratishning dastlabki/boshlang'ich shartlarini o'rganishga o'tamiz. Yuqorida ko'rsatilgan boshlang'ich shartlar sifatida quyidagi uch fikr, qoidani ajratamiz. Ularning birinchisi xorijiy tilda pragmatik ko'nikmalarni egallagan talabalarni tayyorlash uchun ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Ushbu metodik modelni yaratishga bo'lgan ikkinchi boshlang'ich shart bakalavriat darajasining OTDTS (oliy ta'lim uchun davlat ta'lim standartlari) talablariga rioya qilish zarurligi hisoblanadi. Korpusli texnologiyalarning lisoniy-didaktik potentsiali va ulardan pragmatik kopetensiyani shakllantirishda foydalanish orasidagi ziddiyatlarni mavjudligi uchinchi boshlang'ich/dastlabki shart deb hisoblash o'rinli.

Metodik modelni yaratishning navbatdagi bosqichi uning nazariy blokini qurishdan iborat. Ushbu element o'qitish jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Tamoyil o'quv jarayonidagi qaysi bir/ma'lum bir ajralmas boshlang'ich punkt/nuqta hisoblanadi. Yondashuv esa turli tamoyillarni o'zida mujassam qiladi va bu bilan o'qitish jarayonini u yoki boshqa tomonga yo'naltiradi. Bu yerdan muayyan metodik modelda yondashuvlar va tamoyillarni saralab olishning muhimligi kelib chiqadi.

Demak, ushbu tadqiqot doirasida biz quyidagi yondashuvlarni kiritishni to'g'ri deb hisoblaymiz: a) kommunikativ-kognitiv; b) tizimlilik; v) shaxsiy-faoliyatga asoslangan va g) kompensator tamoyillari. O'Z tanlovimizni asoslash bilan har bir yondashuvni batafsil ko'rib chiqamiz.



2-TOM, 2-SON

Kommunikativ-kognitiv yondashuv (Shchepilova A.V., 2003) tahsil oluvchilarda o'rganilayotgan tildagi nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va unda nazariy bilimlar olish orasida ma'lum bir (qandaydir bir) muvozanatning bo'lishini taqozo etadi. Ushbu yondashuv kommunikativ-kognitiv yo'naltirilganlikka ega va bu uning asosiy tamoyilidir. Ushbu tamoyilning kognitiv tarkibiy qismi lisoniy (lingvistik) tizimlar haqidagi bilimlarni tilni o'rganish jarayoni uchun ishga tushirish (ulardan foydalanish), unga tushunganlik/onglilik/ma'nodorlik xossasini berish uchun mo'ljallangan. Olimlarning hisoblashlaricha, lisoniy (lingvistik) tajribasidan foydalanish hisobiga bunday yo'naltirilganlik samarador hisoblanadi. Bu yerdan ona tili, adabiyoti, tilshunoslik, boshqa tillar va madaniyatlar haqidagi bilimlarni xorijiy tilga o'qitish jarayonida faollashtirishni taqozo etadigan filologiyazasiya (lisoniylashtirish) tamoyili kelib chiqadi. Nazariy aspekt til tizimini inson madaniyatining xorijiy tilga o'qitishga proeksiya qilinadigan qismi sifatida o'rganadi. Bu darajada filologizasiyani amalga oshirishning bir necha usuli mavjud. Birinchidan, tizim sifatida, tilni uning bir necha: tarixiy, grammatik, ijtimoiy va boshqa yo'nalishlarda rivojlanishini nuqtai nazarlaridan o'rganish mumkin. Ikkinchidan, xorijiy tilga o'qitishda ona tili va/yoki oldnn o'rganilgan tillar haqidagi bilimlardan ma'lum bir (qandaydir bir) tayanch sifatida foydalanish mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy komponent xorijiy tilni o'rganayotgan shaxslarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda faol ishtirok etishi mumkin. Filologizasiyaning amaliy ahamiyatiga kelsak, u turli xil matnlardan foydalanishdan iborat. Demak, bizning taxminimizcha, kommunikativ va kogntiv yo'naltirilganlik jihatlarning birga kelishi (qo'llanilishi) pragmatik kompetensiyani shakllantirish uchun samarali modelni yaratar ekan.

O'qitishning har qanday tizim asosida ma'lum bir tizim yotadi. O'qitishning tizimsizligi tahsil oluvchilarning taraqqiyotini jiddiy qiyinlashtiradi, hamda ularning motivasiya darajasini pasaytiradi. Shuning uchun ham biz pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishning biz taklif qilayotgan modelida tizimli yondashuvni kiritish zarur/majburiy deb qaraymiz. Mamlaktimiz pedagogikasida 1960 yillarda paydo bo'lgan tizimli yondashuv o'qitish metodikasini tashkillashtiradi va strukturalashtiradi. Tizimli yondashuvning tarafdolrlaridan biri hisoblangan olim I.V. Blauberg (1997) ushbu yondashuvning komponent tarkibini taklif etgan. Integrativlikni olim uning birinchi elementi deb taklif qilgan. Muallifning fikricha, ushbu parametr asosiy/kalit parametr hisoblanadi va tizimning maxlum bir yax'litligini taqozo etadi. Tizimli yondashuvning integrativlikdan boshqa tamoyillari ham ajratiladi. Ierarxiya(lashtirilganlik (ierarxiyaning mavjudligi) tamoyili tizim elementlarining strukturalashtirilgan



2-TOM, 2-SON

bog'liqligi/tobelashtirilganligini taqozo etadi. Bu yerdan navdatdagi tamoyil – strukturalashtirilganlik tamoyili kelib chiqadi. Bu tamoyil tizimni muayyan qoidalarga asosan tashkil etishni taqozo etadi. Ko'p sonlilik cho'nggi tamoyil hisoblanadi. Ushbu tamoyilning namoyish bo'lishi muayyan tizimni va uning alohida komponentlarini o'rganish uchun turli tuman modellarni (modellarning turli tumanligini) qo'llashdan iborat.

Shaxsga-faoliyatga asoslangan yondashuvni uning nomining ikki tarkibiy qismini tashkil etuvchi komponentlarining qo'llanishilish doirasida o'rganish qabul qilingan. Ulardan birinchisi – shaxsga asoslangan (qaratilgan) komponent har bir o'quvchini – barcha ijtimoiy (sotsiologik) va psixologik o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda individullik sifatida o'rganishni taqozo etadi. Shubhasizki, bunday yondashuv o'qituvchiga o'qitish jarayonini tahsil oluvchilarning shaxsiy xislat/sifatlariga muvofiq qurishda yordam beradi.

Kompetentlikka asoslangan yondashuv xorijiy tilga o'qitishda eng ko'p, keng tarqalgan yondashuvlardan biri. Ushbu yondashuv turli darajadagi ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarga kiritilgan. Kompetentlikka asoslangan yondashuvning asosiy/kalit maqsadi tahsil oluvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat (Zimnyaya I.A., 2003). Kompetentlikka asoslangan yondashuv tarkibiga kiritilgan kompetensiyalarning ko'plab turi mavjud. Kompetensiyalarning birinchi guruhi umummadaniy kompetensiyalar (UK) deb nomlangan. Umummadaniy kompetensiyalar – madaniyat ichida va madaniyatlararo o'zaro faoliyat doiralarida ko'nikmalar va malakalar to'plami hisoblanadi. Kompetensiyalarning ikkinchi guruhi umumkasbiy kompetensiyalardan iborat (UKK) . Ushbu kompetensiyalar o'quv jarayonida shakllantirilgan ko'nikmalar va malakalardan tashkil topadi va muayyan fan bo'yicha bilimlar hajmiga muvofiq/mos keladi. Kompetensiyalarning uchinchi turi kasbiy (professional) kompetensiyalar (KK) deb yuritiladi. Kompetensiyalarning bu turi mutaxassisga o'z kasbiy/professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lish imkonini beradi va bilimlar hamda tajribani o'z ichiga oladi.

Kompetentlikka asoslangan yondashuvning bir qator ustunlik/afzal tomonlari mavjud, shuning uchun qo'llashga jozibador hisoblanadi. Dastavval, u amaliy faoliyatning nazariy faoliyatdan ko'proq/ustun qo'llanilishidan iborat bo'lib, u (amaliy faoliyat) pirovard natijada kasbiy faoliyatda muhimroq hisoblanadi. Buning ustiga, kompetentlikka asoslangan yondashuv bitta vazifaning o'zini turli metodlar bilan yechish/bajarish imkonini beradi. Bu esa o'qitishda ijodiylik va individuallashtirishning darajasi yuqoriroq bo'lishini anglatadi (olib keladi). Bundan tashqari, ushbu yondashuv tahsil oluvchilarning muxtor/avtonom bo'lishini rag'batlantirdi, ularning izlanish ichki hissini va tadqiqotchilik



2-TOM, 2-SON

faoliyatini rivojlantiradi. Bu belgilarni pragmatik kompetensiyani korpusli texnologiyalar asosida shakllantirishda biz o'ta muhim deb tushunamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Takkaç Tulgar, A. (2016). The role of pragmatic competence in foreign language education. Turkish Online Journal of English Language Teaching (TOJELT), 1(1), 10–19.
2. Зимняя И. А. 3-62. Педагогическая психология. Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. — М.: Издательская корпорация «Логос», 2000. — 384 с.
3. *Blauberg I.V. (1997) The problem of integrity and a systematic approach. The series «Philosophers of Russia of the XX century».*



2-TOM, 2-SON

AZOTLI O'G'ITLAR SHAKLLARINING GIDROPONIKA USULIDA
O'STIRILGAN POMIDORNING QURUQ MODDA TO'PLASHIGA TA'SIRI

Nurullayev B., Qo'chqorov D., Ortikov T.

(ortikovt@mail.ru) ([https:// orcid.org/0009-0003-1370-3469](https://orcid.org/0009-0003-1370-3469))

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada azotli o'g'itlar shakllarini issiqxona sharoitida kokos qipig'i asosida gidroponika usulida o'stirilgan tomat o'simligida quruq modda to'planish dinamikasiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Bunda kaliy nitrat, ammoniy sulfat va karbamid shaklidagi azotli o'g'itlarni tomat o'simligida quruq modda miqdori dinamikasiga turlicha ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Pomidor o'simligidagi quruq modda miqdoriga eng kuchli ta'sirni kaliy nitrat shaklidagi azot saqllovchi o'g'it, eng kuchsiz ta'sirni ammoniy sulfat shaklidagi azotli o'g'it ko'rsatishi isbotlab berilgan. Ushbu ko'rsatkichga karbamidning ta'siri o'rtacha xarakterga ega bo'ldi.

Kalit so'zlar: azotli o'g'it shakllari, kaliy nitrat, karbamid, ammoniy sulfat, issiqxona, gidroponika, kokos qipig'i, pomidor, o'simlik, quruq modda.

Аннотация: В статье представлены данные о влиянии форм азотных удобрений на динамику накопления сухого вещества в растениях томата, выращиваемых гидропонным способом с использованием кокосовой стружки в теплице. В то же время установлено влияние различных форм азотных удобрений, таких как калийная селитра, сульфат аммония и мочевины, на динамику количества сухого вещества в растениях томата. Доказано, что наиболее сильное влияние на количество сухого вещества на растениях томата оказывает азотсодержащее удобрение калийная селитра, а самое слабое - азотное удобрение в форме сернокислого аммония. Влияние мочевины на этот показатель носило умеренный характер.



2-TOM, 2-SON

Ключевые слова: формы азотных удобрений, нитрат калия, карбамид, сульфат аммония, теплица, гидропоника, кокосовая стружка, помидор, растение, сухое вещество

Abstract: The article presents data on the influence of forms of nitrogen fertilizers on the dynamics of dry matter accumulation in tomato plants grown hydroponically using coconut shavings in a greenhouse. At the same time, the influence of different forms of nitrogen fertilizers, such as potassium nitrate, ammonium sulfate and urea on the dynamics of the amount of dry matter in tomato plants, has been established. It has been proven that the nitrogen-containing fertilizer potassium nitrate has the strongest effect on the amount of dry matter on tomato plants, and the weakest effect is nitrogen fertilizer in the form of ammonium sulfate. The effect of urea on this indicator was of a moderate nature.

Key words: forms of nitrogen fertilizers, potassium nitrate, urea, ammonium sulfate, greenhouse, hydroponics, coconut flakes, tomato, plant, dry matter

Kirish. O'simliklarni, jumladan pomidorni o'sishi, rivojlanishi va hosil to'plashi ko'p jihatdan quruq modda miqdori bilan bog'liq bo'ladi. O'simlik qancha ko'p miqdorda quruq modda to'plasa, shuncha yuqori massaga va katta gabaritga ega bo'ladi va bunda yuqori hosil olish ehtimoli katta bo'ladi. O'simlikda quruq modda to'planish darajasi unda kechadigan jarayonlarga, jumladan fotosintez jadalligi, fotosintezning sof mahsuldorligi bog'liq bo'ladi.

Demak, o'simliklarni quruq massasi fotosintez mahsuldorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatgich hisoblanadi. Fotosintez jadallashishi va o'simliklarni ildizdan oziqlanishi yaxshilanishi bilan pomidor o'simligidagi quruq modda miqdori ortib boradi. Bunda ildizdan oziqlanish ham muhim ahamyatga ega bo'ladi. O'simlik oziqlanishida azot me'yorlari bilan birga uning shakllari ham muhim rol o'ynaydi[1;2;3;4]. Azot fotosintez jarayonida hosil bo'lgan uglevodlarni oqsilga aylanishida cheklovchi omil ham hisoblanadi. O'simliklar azot bilan optimal ta'minlanganda bu jarayonlar jadal kechib o'simlik o'sishi,



2-TOM, 2-SON

rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ayniqsa gidroponika usulda sun'iy oziqlantirish hisobiga ekinlar yetishtirilganda yanada dolzarb hisoblanadi. Bunda azotli o'g'itlarning nafaqat me'yori balki shakllari ham katta ahamiyatga ega. Chunki gidroponika usulda ekin parvarishlanganda eritmadagi kation va anionlar va ularning nisbati ham muhim o'rin tutadi. Bunda ionlar o'rtasidagi sinergizm va antagonizm jarayonlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Issiqxona sharoitida gidroponika usulida yetishtirilgan pomidor o'simligida ushbu masalalarni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti, o'tkazish sharoiti va uslublari. Tadqiqot issiqxona sharoitida kokos qipig'i asosida gidroponika usulida pomidor yetishtirish sharoitida azotli o'g'itlar shaklini o'simlikda quruq massani to'planishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borildi. Tadqiqotda issiqxonada kokos qipig'i asosida gidroponika usulida pomidor yetishtirishda azotli o'g'itlarning 3 ta shakli kaliy nitrat, ammoniy sulfat va karbamid o'rganildi.

Tadqiqot pomidorning Pink Paradise F1 duragay o'simliklarida o'tkazildi. Tajriba sxemasi 3 ta variantdan iborat bo'lib, bunda variantlar V bochkadagi azot shakllari bilan farq qildi. 1-variantda azotli o'g'it sifatida kaliy nitrat, ikkinchi variantda ammoniy sulfat va 3-variantda karbamid ishlatildi. Variantlar A bochkaning tarkibi bilan farq qilmadi. V bochkadagi kaliy miqdori barcha variantlarda bir xil qilib olindi. Buning uchun 2 va 3-variantlarda kaliy sulfatning me'yori oshirildi. Pomidor o'simliklarini oziqlantirish o'simlik fazalariga qarab uch xilda amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

Pomidor o'simligini turli xil fazalarda o'g'itlash va oziqlantirish sxemalari

Pomidor ko'chati kakos substratiga ekilgandan 3-yarus gullari ochilgunga qadar beriladigan mineral o'g'itlar		
1-variant A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 100 kg	2-variant A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 100 kg	3-variant A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 100 kg



2-TOM, 2-SON

<p>Kaliy nitrat KNO_3 20kg Temir II sulfat FeSO_4 1.2kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kaliy nitrat KNO_3 25kg Kaliy sulfat K_2SO_4 21kg Mono kaliy fosfat (0.52.34) 22kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 250gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>Kaliy nitrat KNO_3 20kg Temir II sulfat FeSO_4 1.2kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Ammoniy sulfat $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ 16.31 Kaliy sulfat K_2SO_4 42.52kg Mono kaliy fosfat (0.52.34) 22kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 250gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>Kaliy nitrat KNO_3 20kg Temir II sulfat FeSO_4 1.2kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Karbamid $(\text{NH}_2)_2\text{CO}$ 7.52 Kaliy sulfat K_2SO_4 42.52kg Mono kaliy fosfat (0.52.34) 22kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 250gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>
Pomidorning 3-yarus gullari ochilganidan 5-yarus gullari ochilgunga qadar	Pomidorning 3-yarus gullari ochilganidan 5-yarus gullari ochilgunga qadar	Pomidorning 3-yarus gullari ochilganidan 5-yarus gullari ochilgunga qadar
1-Variant	2-Variant	3-Variant
<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 110kg Kaliy nitrat KNO_3 24kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 1.8kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kaliy nitrat KNO_3 26kg Kaliy sulfat K_2SO_4 25kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 22kg Monoammoniy fosfat 4kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 285gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 110kg Kaliy nitrat KNO_3 24kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 1.8kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Ammoniy sulfat $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ 16.96 Kaliy sulfat K_2SO_4 47.38kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 22kg Monoammoniy fosfat 4kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 285gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 110kg Kaliy nitrat KNO_3 24kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 1.8kg B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Karbamid $(\text{NH}_2)_2\text{CO}$ 7.82 Kaliy sulfat K_2SO_4 47.38kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 22kg Monoammoniy fosfat 4kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 285gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>
1-variant	2-variant	3-variant
Pomidorning 5-yarus gullari ochilganidan boshlab 8-yarus gullari ochilgunga qadar	Pomidorning 5-yarus gullari ochilganidan boshlab 8-yarus gullari ochilgunga qadar	Pomidorning 5-yarus gullari ochilganidan boshlab 8-yarus gullari ochilgunga qadar



2-TOM, 2-SON

<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 125 kg Kaliy nitrat KNO_3 27kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 2.2kg</p> <p>B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kaliy nitrat KNO_3 28kg Kaliy sulfat K_2SO_4 32kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 24kg Monoammoniy fosfat 5kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 350gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 125 kg Kaliy nitrat KNO_3 27kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 2.2kg</p> <p>B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Ammoniy sulfat $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ 18.26kg Kaliy sulfat K_2SO_4 56.1kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 24kg Monoammoniy fosfat 5kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi H_3BO_3 350gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>	<p>A-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Kalsiy nitrat $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ 125 kg Kaliy nitrat KNO_3 27kg Temir II sulfat 12% FeSO_4 2.2kg</p> <p>B-bakga solinadigan mineral o'g'itlar. Karbamid $(\text{NH}_2)_2\text{CO}$ 8.42kg Kaliy sulfat K_2SO_4 56.1kg Monokaliyfosfat (0.52.34) 24kg Monoammoniy fosfat 5kg Magniy sulfat MgSO_4 50kg Borat kislotasi kislotasi H_3BO_3 350gr Rux sulfat ZnSO_4 215gr Marganes sulfat 225gr Mis sulfat CuSO_4 Molibden 12 gr</p>
--	---	--

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotda azotli o'g'itlarning shakillari gidroponika usulida yetishtirilgan bitta pomidor o'simligining quruq massasi miqdoriga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu holat kakaos qipig'i asosida gidroponika usulida yetishtirilayotgan pomidorning barcha rivojlanish fazalarida kuzatildi. Bitta pomidordagi quruq modda miqdori o'simlik o'suv davri bo'ylab ortib bordi va pishish fazasida eng katta qiymatga ega bo'ldi. Bu holat barcha variantlarda qaytarildi. Masalan, kokos qipig'i asosida gidroponika usulida yetishtirilgan pomidorning shonlash fazasida azot manbayi sifatida kaliy nitrat qo'llanilgan 1-variantda bitta o'simlikdagi quruq modda o'rtacha 18,48 grammi tashkil etdi, shundan poya quruq massasi 6,84 grammi tashkil etdi, barg quruq massasi 11.64gr bo'ldi (2-jadval). Ushbu ko'rsatgichlar azot manbayi sifatida ammoniy sulfat qo'llanilgan ikkinchi variantda yuqoridagi raqamlarga mos ravishda 17,56; 6,5;11,05 gramm, azot manbayi sifatida karbamid qo'llanilgan 3-variantda tegishlicha 17,99; 6,65;11,34 gramm bo'ldi (2-jadval). Pomidorning gullash fazasini boshlanishiga kelib poya, barg va bir butin o'simlikdagi quruq modda massasi barcha variantlarda ortdi. Ushbu fazada eng yuqori poya, barg va bir butin o'simlik quruq modda miqdori azot manbai sifatida kaliy nitrat qo'llanilgan 1-variantda kuzatildi. Karbamidning ta'siri (3-variant) ammoniy sulfatning ta'siridan (2-variant) kuchli bo'ldi, ya'ni eng kuchsiz ta'sirga ammoniy sulfat (2-variant) ega bo'ldi. Masalan, azot



2-TOM, 2-SON

manbai sifatida kaliy nitrat qo'llanilgan 1-variantda pomidor o'simligini gullash fazasining boshlanishida poya quruq modda massasi 17,6 gramm, barg quruq massasi 29,97 gramm, bir butun o'simlik quruq modda massasi 47,57 gramm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar azot manbai sifatida ammoniy sulfat qo'llanilgan 2-variantda yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos ravishda 15,67; 26,84; 42,51 gramm, azot manbai sifatida karbamid qo'llanilgan 3-variantda tegishlicha 17,33; 29,51; 46,84 grammni tashkil etdi(2-jadval). Bu qonuniyatli o'zgarishlar kokos qipig'i asosida gidroponika usulida o'stirilgan pomidor o'simligining meva hosil bo'lishini boshlanish davrida ham kuzatildi. Quruq moddaning eng yuqori miqdori pomidor o'simligining pishish fazasini boshlanishida qayd etildi. Ushbu fazada ham kaliy nitratning ta'siri ammoniy sulfat va karbamidnikidan yuqori bo'ldi. Eng kuchsiz ta'siriga ammoniy sulfat ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, azot manbai sifatida kaliy nitrat qo'llanilgan 1-variantda pomidor o'simligining pishish fazasini boshlanishida poya quruq moddasi massasi bitta o'simlikda o'rtacha 96,80 gramm, bitta o'simlikdagi barg quruq massasi 164,65 gramm, bir butun o'simlikdagi quruq modda miqdori 261,45 gramm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar azot manbai sifatida ammoniy sulfat qo'llanilgan 2-variantda yuqoridagi raqamlarga mos ravishda 91,60; 155,25; 246,85 gramm, azot manbai sifatida karbamid ishlatilgan 3-variantda tegishlicha 95,25; 164,00; 259,25 gramm bo'lishi aniqlandi(2-jadval). Demak, azotli o'g'itlar shakllari bo'lgan kaliy nitrat, ammoniy sulfat, karbamid bitta pomidor o'simligidagi quruq modda miqdoriga, jumladan barg va poya quruq modda massasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichga eng kuchli ta'siriga kaliy nitrat ega bo'lsa, eng kuchsiz ta'sirni ammoniy sulfat ko'rsatadi. Karbamid bu borada oraliq holatni egallaydi.

Azotli o'g'it shakllari bir gektar yerdan chiqadigan quruq modda miqdoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu holatda ham yuqoridagi qonuniyatlar kuzatildi. Azot manbai sifatida karbamid qo'llanilgan variantda bir gektar yerdan chiqadigan quruq modda miqdori eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Karbamid qo'llangan variantda bir gektar yerdan chiqadigan quruq modda miqdori ammoniy sulfat qo'llanilgan variantdagidan yuqori bo'ldi.



2-TOM, 2-SON

Quruq modda miqdori bir gektar maydonga hisoblanganda ham pomidor o'suv davri boshidan keyingi rivojlanish fazalariga qarab ortib bordi, pomidorning pishish fazasiga kelib eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Masalan, kokos qipig'i asosida gidroponika usulida yetishtirilgan pomidorning shonalash fazasida azot manbai sifatida kaliy nitrat qo'llanilgan 1-variantda poya quruq massasi 150,48 kg/ga, barg massasi 256,08 kg/ga, bir butun o'simliklar quruq massasi 406,56 kg/ga bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar azot manbai sifatida ammoniy sulfat ishlatilgan 2-variantda yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos ravishda 143,22; 243,10; 386,32 kg/ga, azot manbai sifatida karbamid qo'llanilgan 3-variantda tegishlicha 146,30; 249,48; 395,78; kg/ga bo'lishi kuzatildi (3-jadval). Xuddi shunday qonuniyatlar pishish fazasini boshlanishida ham kuzatildi. Masalan, kokos qipig'i asosida gidroponika usulida yetishtirilgan pomidorning ushbu fazasida azot manbai sifatida kaliy nitrat ishlatilgan 1-variantda poya quruq massasi 2129,60 kg/ga, barg quruq massasi 3622,3 kg/ga, jami quruq massasi 5751,9 kg/ga bo'lgan bo'sa, bu ko'rsatkich azot manbai sifatida ammoniy sulfat qo'llanilgan 2-variantda yuqoridagi raqamalarga mos ravishda 2015,20; 3415,50; 5430,70 kg/ga, azot manbai sifatida karbamid qo'llanilgan 3-variantda tegishlicha 2095,50; 3608,0; 5703,5 kg/ga ni tashkil etdi (3-jadval). Pomidor o'simligining barcha fazalarida barg ququr massasi poya quruq massasidan yuqori bo'ldi. Demak, gidroponika usulida o'stirilayotgan pomidor ekinida turli xil azotli o'g'itlar shakllari bitta o'simlikdagi va bir gektar yerdan chiqadigan quruq modda massasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Azotli o'g'itlar shakllari pomidor o'simligida hosil bo'ladigan quruq modda massasiga ta'siri bo'yicha quyidagi ketma-ketlikni hosil qiladi: kaliy nitrat>karbamid>ammoniy sulfat.2-jadval

Gidroponika usulida yetishtirilayotgan pomidorni quruq massa to'planishiga azotli o'g'itlar shaklining ta'siri, g/o'simlik



2-TOM, 2-SON

NO	Shonalash fazasi			Gulash fazasi boshlanishi			Meva hosil bo'lishni boshlanishi			Pishish fazasini boshlanishi		
	poya	barg	jami	poya	barg	jami	poya	barg	jami	poya	barg	jami
1	6.84	11.64	18.48	17.6	29.97	47.57	48.63	82.83	131.46	96.80	164.65	261.45
2	6.51	11.05	17.56	15.67	26.84	42.51	44.85	76.05	120.90	91.60	155.25	246.85
3	6.65	11.34	17.99	17.33	29.51	46.84	47.40	77.31	124.71	95.25	164	259.25

3-jadval

Gidroponika usulida yetishtirilayotgan pomidorni quruq massa to'planishiga azotli o'g'itlar shaklining tasiri, kg/ga

NO	Shonalash fazasi			Gulash fazasi boshlanishi			Meva hosil bo'lishni boshlanishi			Pishish fazasini boshlanishi		
	poya	barg	jami	poya	barg	jami	poya	barg	jami	poya	barg	jami
1	150.48	256.08	406.56	387.2	659.34	1046.54	1070.3	1822.26	2892.56	2129.60	3622.3	5751.9
2	143.22	243.10	386.32	344.74	590.48	935.22	986.7	1673.10	2659.8	2015.20	3415.50	5430.7
3	146.30	249.48	395.78	381.26	649.22	1030.48	1042.8	1700.82	2743.62	2095.50	3608	5703.5



2-TOM, 2-SON

Xulosa. Issiqxona sharoitida kokos qipig'i asosida gidroponika usulida pomidor yetishtirishda azotli o'g'itlarning shakli muhim ahamiyatga ega. Azotli o'g'itlarning shakli pomidor o'simligi quruq modda massasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Hidroponika usulida pomidor yetishtirishda o'simlik quruq moddasini to'planishida eng yuqori samaraga kaliy nitrat ega. Eng past samara ammoniy sulfat qo'llanilganda kuzatiladi, karbimid bu borada oraliq holatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Фадькин Г.Н., Лупова Е.И., Виноградов Д.В., Ушаков Р.Н. Обоснование применения различных форм азотных удобрений под сельскохозяйственные культуры и их влияние на плодородие серой лесной почвы//Вестник Краснодарского ГАУ, 2020, №7. -С.63-71
2. Фадькин Г.Н., Костин Я.В. Влияние длительного применения форм азотных удобрений на фосфатный режим серой лесной тяжелосуглинистой почвы//Вестник ФГБОУ ВПО РГАТУ, №1(17), 2013. -С.31-35
3. Костин Я.В., Фадькин Г.Н., Гусев В.И., Пчелинцева С.А., Ушаков Р.Н., Зубец А.Н., Таланова Л.А. Агроэкологическая эффективность разных форм минеральных удобрений на серых лесных почвах//Вестник РГАТУ, №1, 2009. -С.38-41
4. Петров А.Ф., Коваль Ю.И., Листков В.Ю. Влияние различных форм азотных удобрений на урожайность томата. Инновации и продовольственная безопасность. 2019;(2):145-150. <https://doi.org/10.31677/2311-0651-2019-24-2-145-151>



2-TOM, 2-SON

THE IMPORTANCE OF FINANCING INNOVATIVE PROJECTS IN THE
DEVELOPMENT OF MICROECONOMICS

Akramov Sardor Zaxidovich

magister.akramov@gmail.com

Head of Youth Work, Acceleration and Incubation Department of Innovative Educational and Production Technopark "INNO" under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation

Annotation. This article examines the role of intellectual capital in the development of the knowledge economy. Approaches to determining the essence of intellectual capital are explored, a classification of the types of its reproduction is given, and the role of the integration of science and education in increasing the return of intellectual capital is emphasized.

Key words: knowledge economy, intellectual capital, science, education. 142.

The formation of the knowledge economy has radically changed the patterns of economic development. The main source of the country's wealth and increasing its competitiveness is increasingly not natural resources and financial capital, but knowledge and information, embodied primarily in intellectual capital.

One of the most famous and authoritative experts in the field of intellectual capital, who received the prestigious "Intelligence of the Year" award for his research, L. Edvinsson understands its essence this way: "In my opinion, intellectual capital is a special combination of human capital (real and potential intellectual abilities, as well as the corresponding practical skills of the company's employees) and structural capital (components of the company's capital, determined by such specific factors as relationships with consumers, business processes, databases, brands and IT systems). This is the ability to transform knowledge and intangible assets - into factors (resources) that create wealth (and, accordingly, value) - due to the special effect of "multiplying" human capital with structural capital".

According to T. Stewart, editor of Fortune magazine, author of the famous article "Brain Power," "intellectual capital is intellectual material that includes knowledge, experience, information and intellectual property and is involved in the creation of values".



2-TOM, 2-SON

An in-depth analysis of the evolution of theoretical approaches to the study of the category “intellectual capital” led to the conclusion that intellectual capital is understood in both a narrow and broad sense.

In a narrow sense, it is a set of qualitative properties of an individual, which consist of knowledge, skills, ideas, objects of intellectual property belonging to him, as well as his potential abilities to independently reproduce all this in the future.

In a broad sense, the essence of intellectual capital as an economic category can be defined as a system of relations between various economic entities regarding the rational use of accumulated knowledge, experience, information and intellectual property for the purpose of innovative production of specific goods and services, improving the living standards of the population, and solving the problem of sustainable economic development countries.

Thus, understanding intellectual capital in a broad sense transforms the concept we are studying from the category of purely economic science into a socio-economic category: without entering into social relations, the full reproduction of intellectual capital is impossible.

In addition, in our opinion, it is important to differentiate the essence of intellectual capital depending on the level of functioning of the socio-economic system, namely, intellectual capital at the level of the individual, at the level of the economic entity and at the level of the state as a whole.

In addition, intellectual capital should be considered not just as an accumulated sum of knowledge, skills, intellectual property, but as a kind of system in which individual elements reinforce each other; Indeed, knowledge, skills, abilities are capable of forming the so-called “synergetic effect” of interaction, thereby intellectual capital, among other things, has the ability to integrate knowledge, skills and abilities to obtain a multiplying effect.

It is advisable to include in intellectual capital not only existing knowledge, skills and intellectual abilities, but also the potential for their reproduction in the future. Thus, if a person knows how to obtain new useful information or generate it, he will constantly replenish and improve his own intellectual capital throughout his life.

The economic literature does not sufficiently cover the issue of classifying the types of reproduction of intellectual capital. Meanwhile, in our opinion, this issue has important theoretical and applied significance: the choice of specific methods for increasing the efficiency of its use directly depends on the precise identification of the type of reproduction of intellectual capital. We have made an attempt to fill this theoretical gap.



2-TOM, 2-SON

Differentiation of types of reproduction process into simple, expanded and narrowed reproduction is traditional for the reproduction of any types of capital - fixed capital, financial resources, human. The reproduction of the category we are studying is simple when, within the framework of this process, intellectual capital is renewed on an unchanged scale: for example, an individual's outdated knowledge is replenished in approximately the same volume, without acquiring a fundamentally new quality.

LITERATURE:

1. Edvisson L. Corporate longitude. Navigating the knowledge-based economy. – M: INFRA, 2005. – 248 p.
2. Stuart Thomas A. Intellectual capital. A new source of wealth for organizations / Transl. from English V. Nozdrina. – M.: Generation, 2007. – 368 p.
3. European innovation scoreboard 2008. Comparative analysis of innovation performance (January, 2009). – URL: [http:// www. Proinno-europe. ue/metrics](http://www.Proinno-europe.ue/metrics).



2-TOM, 2-SON

MAKTABGACHA TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Oltinsoy pedagogika kolleji Ishlab chiqarish ta'limi bo'yucha direktor o'rinbosari,
informatika va AT fani o'qituvchisi

Mirzayev Bahrom Mamatkarimovich

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarsiz hech bir soha taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy axborot texnologiyari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sohaga innovatsiyalarni joriy etish eng dolzarb vazifalardandir. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan, shuningdek zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: bola, ta'lim, tarbiya, o'yin, axborot texnologiyalari, interfaol texnologiya, multimedia, audio, video, animatsiya, dastur.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi jamiyatimizning barcha sohalari qatorida ta'lim sohasini ham qamrab olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 - sonli hamda 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari shuningdek, "O'zbekiston Respublikasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018-yil 19-fevraldagi 3549-sonli Qaroriga muvofiq jamiyatimizning boshqa sohalarida bo'lganidek, maktabgacha ta'lim sohasida ham ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridan keng foydalanish ta'lim sifatini ta'minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarning oldiga katta mas'uliyat qo'yilishi bilan birga, ularning o'z ustida ishlab, AKT buyicha bilim saviyasini oshirishni, shuningdek ularning izlanuvchanligi va ijodkorligini talab etadi. Maktabgacha ta'lim



2-TOM, 2-SON

tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdan kutiladigan natijalar quyidagilarda yaqqol namoyon bo`ladi: birinchidan, maktabgacha ta`lim sohasida ta`lim sifati va bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligining yaxshilanishi; ikkinchidan, bolalarning erkin fikrlashi doirasi va dunyoqarashining kengayishi; uchinchidan, bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishi; ota-onalar bilan maktabgacha ta`lim tashkiloti hamkorligining yanad mustahkamlanishi va qulaylikni ta`minlashi bilan afzaldir.

Texnika vositalari bilan to`la jihozlangan, ko`rgazmalarga boy mashg`ulot, estaliklar, tadbirlar va chet tililarini o`rgatish bo`yicha to`garak mashg`uotlari boladagi qobiliyat va iqtidorni yuzaga chiqarishda, uni rivojlantirishda ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Ayniqsa axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning imkoniyatlari bollarning aqliy intellektual rivojlanishiga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatadi, shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilimlariga qo`yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" Davlat o`quv dasturi asosida bilim va ko`ikmalarni egallagan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ulardan to`g`ri foydalana oladigan 6-7 yoshli bola axborot zamonaviy, ilg`or texnologiyalar asosida ta`lim berayotgan maktab ta`limiga jismonan shay, yetarli intellektual ko`nikmalarga ega, psixologik tayyorlangan holda yo`llanadi.

Axborotlashtirish jarayonida maktabgacha ta`lim tashkilotidagi tayyorlov guruh xonalarini yetarlicha jihozlash, multimediya jihozlari uchun moslashtirish masalalarini hal etish, maktabgacha ta`lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning AKT bo`yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Maktabgacha ta`lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo`nalishlarda o`z ifodasini topadi:

- a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo`lgan masofaviy ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanish;
- b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta`limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida foydalanish;
- c) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta`lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta`lim tashkiloti pedagoglari oldiga bir qator vazifalarni qo`yadi. Eng avvalo, pedagog kompyuter o`yinlarini va ta`lim dasturlarini tanlashda bolaga boshchilik qilishi kerak. Buning uchun tarbiyachi kompyuter savodxonligini egallagan bo`lishi zarur, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilayotgan ta`lim-tarbiya faoliyatida bevosita global internet tarmog`i resurslaridan unumli foydalana olishi muhim.



2-TOM, 2-SON

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida o`yin – bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Gap kompyuter o`yinlari haqida borar ekan, tarbiyachi o`yinlarning bola yoshi va axloq me`yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Kompyuter o`yinlaridan foydalanish (multimediya vositasida) bolalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish bilan birga bolaning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda ijobiy natija beradi. Paint dasturida bola rasm chizish jarayonida tasvirlagan predmet yoki hayvon, tabiat manzarasi yoki odam rasmiga rang tanlashi, mavjud ranglarni farqlashi, ularni joy-joyida ishlatishi, natijada o`z ishini baholashi davomida uning individual shaxs xususiyatlari, qiziqishlari oddiy qog`ozga rasm chizgandan ko`ra yaqqolroq ifodalanadi.

Shu bilan birga AKT bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarni tez o`zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi. Bu interfaol kompyuter o`yinlari tarbiyachi tomonidan davlat talablariga mos ravishda Power Point dasturida va mashg`ulotda bolalar bilan birga o`ynash uchun yaratilgan bo`lishi zarur. Masalan, o`yin faoliyat markazida “Bino quramiz”, “Farqini top”, “Nima kam”, “Xatoni top”, “Qo`g`irchoqni kiyintiramiz”, “Shaklni joylashtir”, “Rasmni bo`ya” ta'limiy o`yinlarni animatsion tasvirlar yordamida o`ynasa mavzuga oid berilgan bilimlarni bola zo`r qiziqish bilan o`zlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan kompyuterlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni taqqoslaydigan bo`lsak, kompyuterlashtirilgan texnologiyalarda samarali natijalar namoyon bo`ladi. Kompyuter ekranida axborotning o`yin shaklida aks etishi bolalarda shu faoliyat turiga nisbatan diqqat va qiziqishini uyg`otadi; harakat, tovush, multiplikatsiya tasvirlari bola xotirasida uzoq vaqt taassurot qoldiradi. Muammoli masalalarning qo`yilishi va ularning to`g`ri yechimini kompyuter orqali topilishi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ko`rsatilganidek, kompyuter bolaga alohida yondashuv imkonini yaratadi, bu jarayonda har bir bolada o`z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishiga imkon bo`ladi. O`z navbatida, bolalarda kompyuter va smartfonlardan to`g`ri foydalanish ko`nikmasini shakllantirish, mazkur texnika vositalarining ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy tomlari ham mavjudligini nazarda tutish zarur. U faqat ta'limning samaradorligini va zamonaviyligini ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim.

AKTning maktabgacha ta'limga kiritishidagi dolzarb muammolardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog xodimlar kompetentligining yetarli



2-TOM, 2-SON

emasligidir. Bugungi kun pedagoglari zmon bilan hamnafas ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil oshirib borishlari zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar, tibbiy xodimlar va boshqa mutaxassislar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Ular hamkorlikda bolaning har tomonlama riojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Zero, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ham kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga maktabgacha ta'lim bosqichidanoq sifatli ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini Presidentining Qarori PQ-3261 — “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 09.09.2017.
2. UNESCO, Montoya S. Defining literacy. GAML fifth meeting, Germany, 2018.
3. Barnett, W. Preschool education for economically disadvantaged children: Effects on reading achievement and related outcomes. In S. B. Neuman & D. K. Dickinson (Eds.), Handbook of early literacy research, Vol. 1, pp. 421-443. New York: Guilford Press, 2001
4. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari.- T.;Fan, 2007.
5. www.gov.karelia.ru/Leader/Gossovet/d14.html.
6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: 2018.

– 192



O`ZBEK FOLKLORINING PAYDO BO`LISHI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Ashurova Mohinabonu Ravshan qizi

Oltinsoy Pedagogika kolleji Musiqa ta`lim fani o`qituvchisi

ANNOTATSIYA: Maqolada folklor atamasi va uning o`ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, o`zbekfolklori, uning turlari ilmiy jihatdan tavsiflangan.

Kalit so`zlar: Folklor, ertakmaqol, matal, topishmoq, askiya, qo`shiq, marsiya.

АННОТАЦИЯ: В статье раскрывается термин фольклор и его характеристика. В частности, научно описаны узбекский фольклор и его виды.

Ключевые слова: фольклор, пословица, мatal, загадка, аския, песня, панихида.

ABSTRACT: The article describes the term folklore and its peculiarities. In particular, Uzbek folklore and its types are scientifically described.

Keywords: Folklore, fairy tale, proverb, riddle, askiya, song, marsiya.

KIRISH Folklor asarlari o`zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g`oyaviy mohiyati hamda o`ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mehnati, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g`alabalarining temasi va g`oyaviy mazmunida ham aks etadi.

Folklor asarlarining xalqchillik xususiyatularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyo qarashni himoya qilishi bilan bog`lanadi. Bu xususiyat, asosan, folklor asarlarida mavjud bo`lgan bosh g`oyaning mohiyatidan kelib chiqadi. Folklor asarlari o`ziga xos badiiy qolip-andozaga ham egadir. Ayniqsa, ertak va dostonlarda mavjud syujet va kompozitsiya hikoya qilish uslubi xarakterli bo`lib, har ikki janrga xos syujet voqelari doimo o`ziga xos boshlanma va tugallanmaga ega bo`ladi. Bunday xususiyat yozma adabiyotda uchramaydi.

Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi U.J.Tomsolibkirgan. 1880-90-yillarda "Folklor" termini ko`plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo`llana boshlagan.

O`zbekistonda dastlab, "og`zaki adabiyot", "og`iz adabiyoti" atamaları qo`llangan. "Folklor" termini 30-yillarning o`rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning "O`zbek folklori" xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o`zbek folklorshunosligida mustahkam o`rin oldi.

Xalq ijodi-xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati, an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og`zaki badiiy ijodi (*folklor*), xalq



2-TOM, 2-SON

musiqasi (*musiqa folklori*) xalq teatri (*tomosha san'ati*), xalq o'yinlari (*raqs*), qo'g'irchoqbozlik, xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi bo'lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan.

Folklorshunoslik – xalq ijodi haqidagi fan. Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (*xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi*) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi.

Musiqa folklori.

O'zbek musiqa san'atida dostonning ikki ijrochilik uslubi mavjud: Xorazm doston ijrochiligi va Surxondaryo – Qashqadaryo ijrochilik uslublari. Xorazm doston ijrochiligida dostonning ma'lum qismi so'z bilan ifodalanib, ma'lum bir bo'laklari qo'shiq ko'rinishida kuyga solib aytiladi. Ijro jarayonida dostonchilar tor, garmon, dutor, doyra, bulamon cholg'ularidan foydalanadilar. Aynipaytda, Bola baxshi taxallusi bilan mashhur bo'lgan Qurbonnazar Abdullayevning ijodi va ijro uslubi keng ommalashgan.

Surxon vohasi doston ijrochiligi qadimiy uslubga asoslangan bo'lib, do'mbira jo'rligida ijro etiladi. Ushbu vohaning asosiy musiqiy janrlaridan hisoblangan dostonlar ayni paytda bir qator ijro yo'llariga ega. Har bir yo'nalishning o'ziga xos ijro an'analari shakllangan va shunga munosib davomchilariga ham egadir. Xalqimizning mashhur dostonchilaridan Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'Ikan shoir, Islom shoir, Abdulla Nuraliyev va boshqalar barakali ijod qilishgan.

MAROSIM deb, insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy ananaga kirib qolgan xatti-harakatlarga aytiladi.

MAROSIM FOLKLORI deb, marosimni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar, o'qiladigan afsun va duolarga aytiladi.

O'tkazilish vaqti, o'rni va tarzi, funksiyalari va ishtirokchilar tarkibi bilan marosim folklori ikki qismga bo'linadi. **Bular:**

1. Mavsumiy marosimlar folklori.
2. Oilaviy-maishiy marosimlar folklori.

Oilaviy-maishiy marosimlar rang-barang bo'lib, shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

1. To'y marosimlari.



2-TOM, 2-SON

2. Motam marosimlari.

3. Soʻzning sehr-jodu qudratiga asoslangan marosimlar.

Toʻy marosimlari: “Beshik toʻy”, “Xatna toʻy”, “Nikoh toʻylari”.

Motam marosimlari: “Yigʻi-yoʻqlovlar”, “Motam yor-yorlari”.

Soʻzning sehr-jodu qudratiga asoslangan marosimlar: “Xalq afsunlari”, “Ruhiiy xastaliklarda oʻqiladigan afsunlar”, “Badik” va “Kinna” lar kiradi.

Xulosa sifatida shuni alohida taʼkidlash joizki, millatning turmush tarzi, milliy qadriyatlari va anʼanalari xalq ogʻzaki ijodida oʻz aksini topadi. Xalq ogʻzaki ijodi xalqning kim ekanligini koʻrsatadigan oinayi jahondir.

Qolaversa, xalq ogʻzaki ijodining oʻz ijodiy metodi mavjud boʻlib, uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkin, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos boʻlishi, yoʻgʻrilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning oʻziga xos uslubi sifatida namoyon boʻladi.

Xalq ogʻzaki poetic ijodining asosiy xususiyati ijodiy jarayon-yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteriga egadir. Uning ogʻzakilik, variantlilik, ommaviylik, traditsionlik, anonimlik kabi belgilarini kollektivlik tomonidan yaratilgan poetika elementlari, anʼanaviy uslub vositalari asosida yuzaga keladi. U muayyan eshituvchilar guruhiga moʻljallangan boʻlishi va kollektiv tomonidan eʼtirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. K.Imomov va boshqalar “Oʻzbek xalq poetic ogʻzaki ijodi” T. 1990.
2. T. Mirzayev va boshqalar “Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi xrestomatiyasi” Toshkent. 2008.
 $(521.9/ 11805.6) *100 = 4,42\%$;

Коэффициент собственных средств, направленных на инновационную деятельность: $6679.3 / 11722.1 = 0,57$; $7669.8 / 10709.2 = 0,72$;

Коэффициент заемных средств, направленных на инновационную деятельность: $4357.6 / 24694.4 = 0,18$; $2696.8/22718.4 = 0,12$;

Уровень затрат на 1 сум инновационной продукции: $11492.9/12522.2 = 0,92$;
 $11805.6/12670.1 = 0,93$;



2-TOM, 2-SON

Удельный вес затрат на НИР и ОКР в общем объеме затрат:
 $(5303.1/156544.4)*100 = 3,39\%$; $(5669.9/161721.4) * 100 = 3,5\%$;

Коэффициент приобретенных инноваций: $9/36 = 0,25$; $7/39 = 0,18$;

Коэффициент совместных проектов: $7 / 36 = 0,19$; $8 / 39 = 0,21$;

Коэффициент собственных инноваций: $36 / 41 = 0,88$; $41 / 44 = 0,93$;

Коэффициент затрат на патенты: $2312,1 / 11722,1 = 0,19$; $1516,6 / 10709,2 = 0,14$;

Удельный вес персонала, занятого инновационной деятельностью:
 $(24/77)*100=31,2\%$; $(27/76) * 100 = 35,5\%$;

Удельный вес персонала прошедшего переподготовку и повышение квалификации по инновационной деятельности: $(8/77)*100=10,4\%$;
 $(10/76)*100=13,16\%$;

Удельный вес менеджеров, занятых в инновационной сфере: $(12/20) * 100 = 60,0\%$; $(15 / 21) * 100 = 71,4\%$;

Удельный вес имущества, предназначенного для разработки и внедрения инноваций: $(4204,1 / 13407,1) * 100 = 31,4\%$; $(4364,2/15424,5) * 100 = 28,3\%$.

По результатам проведенных расчетов можно сделать следующие выводы о динамике показателей инновационной активности предприятия.

Имеет место неблагоприятная динамика ряда показателей:

1. Уровень новизны продукции уменьшился с 0,079 до 0,078, т.е. на 1,27%. Следовательно, предприятию необходимо более активно продвигать инновационную продукцию на рынок и увеличивать выручку от ее реализации.

2. Рентабельность инновационной продукции уменьшилась с 5,97% до 4,42%, т.е. на 1,56 процентных пункта. Следовательно, предприятию необходимо снижать затраты на производство инновационной продукции.

3. Увеличился уровень затрат на 1 сум инновационной продукции с 0,92 сум до 0,93 сум, т.е. на 0,01 процентный пункт или на 1,1%. Следовательно, предприятию необходимо снижать затраты на производство инновационной продукции при одновременном увеличении объема ее производства и продаж.

4. Коэффициент затрат на патенты уменьшился с 0,19 до 0,14, т.е. на 26,3%. Следовательно, предприятию следует шире практиковать приобретение патентов с целью коммерциализации объектов интеллектуальной собственности.

5. Уменьшился удельный вес имущества, предназначенного для разработки и внедрения инноваций с 31,4% до 28,3%, т.е. на 3,1 процентных пункта. Следовательно, предприятию необходимо активизировать работу по развитию материально-технической базы, предназначенной для инновационной деятельности.



2-TOM, 2-SON

Инновационные возможности предприятия – это его потенциальные возможности по организации выпуска реализации инновационной продукции.

Подводя итоги, следует отметить, что в настоящее время отечественная экономика переживает кризисный период, когда особенно актуальным и значимым становится поиск эффективных моделей ведения хозяйственной деятельности и бизнеса, механизмов управления социально-экономическим развитием, производственной, инновационной сферой и т.д.

Эффективное и результативное управление инновационными факторами, направленное на достижение стабильного экономического роста, в первую очередь должно базироваться на объективной и комплексной оценке очереди взаимосвязанной системы показателей инновационной активности.

Список литературы

1. Навоева О.В. Механизм повышения инновационной активности организации. – Магадан: Кордис, 2010. – 135 с.
2. Гунин В.Н. Инновационная активность предприятий: сущность, содержание, формы: Монография – М.: ГУУ, 2000. – 103 с.
3. Яшин С.Н., Кулагова И.А., Лапшина Е.Н. Методика расчета показателей уровня инновационного развития предприятия, обеспечивающих принятие управленческих решений // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2020. – № 7-1. – С. 229-238;
URL: <https://vael.ru/ru/article/view?id=1231> (дата обращения: 21.02.2024).



2-TOM, 2-SON

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida nazorat organlar faoliyati
(1920-1924) yillar.

O'zbekiston Milliyuniversitet Tarix fakulteti
O'zbekistonning yangi tarix kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi

Nazirov Maxmudjon Xasanjon o'g'li
Ilmiy rahbar: T.f.d., professor. A.A.Yermetov
Anotatsiya

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil topganidan keyin bevosita Xiva xoni taxtdan ag'darildi. XXSRning xavfsizlikni tashkil etish maqsadida Ichki ishlar nozirligi tarkibida militsiya bo'limi butun respublika bo'ylab aksilinqilobga qarshi kurash va mamlakat ichidagi jamoat tartibini himoya qilish maqsadida tashkil etildi.

Kalit so'z: Muvaqqat, Militsiya, Politsiya, Adliya, Otryad, Xazorasp, Qurultoy, Inqilobiy Harbiy kengash, Ichki ishlar, Nozirlik, MIQ.

Аннотация

Сразу после образования Хорезмской Народной Советской Республики Хивинский хан был свергнут. В целях организации безопасности СССР в составе Министерства внутренних дел было создано полицейское управление по борьбе с контрреволюцией и охране общественного порядка в стране.

Ключевые слова: Временный, Милиция, Полиция, Правосудие, Отряд, Хазорасп, Курултой, Реввоенсовет, Внутренние дела, Инспекция, МИК.

Muvaqqat inqilobiy hukumatning 1920-yil 8-apreldagi qarori bilan Adliya vazirligi qoshida Xiva shahrining mamlakat militsiya va xavfsizlik boshqarmasi tashkil etilgan⁴⁰. Bo'lim boshlig'i Sholikorov Nazir etib tayinlandi. Bo'limning asosiy vazifalari: aksilinqilobga qarshi kurash va mamlakat ichidagi jamoat tartibini himoya qilish, keyin harbiy nozirlikka bo'ysunish 1921-yil 26-mayda byuro boshqarmasi ichki ishlar xalq vazirligiga qarashli militsiya bo'limiga aylantirildi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining ko'pgina aholi punktlarida politsiya (militsiya) qo'riqlash bo'limlari tashkil etilgan edi. Uning saflarida 1000 dan ortiq militsiya xodimlari bor edi. Ammo boshqarmaning ishlari tartibsiz, uyushmagan holda olib borilgan. Shunga

⁴⁰ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 7-varaq



2-TOM, 2-SON

qaramay, militsiyachilarning katta otryadi bosmachilarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borganlar. Yoz oyiga kelib ularning tarkibi 400 kishiga qisqardi. 1921-yil noyabr oyining oxiriga kelib, militsiyaning ma'muriy bo'limida 11-kishi ishlagan, shu jumladan, bo'lim boshliqlari ish yuritish bilan shug'ullangan, bo'limning moliyaviy va oziq-ovqat ishlarini olib borishgan⁴¹. 1922-yil 12-aprelda Ichki ishlar xalq nozirligining buyrug'i bilan "mahalliy militsiya bo'limlarini tashkil etish va bu bo'limlarning 440 kishidan iborat shtatlarini tasdiqlash to'g'risida" va Xalq Nozirlari Sovetining qaroriga muvofiq 25-mart kuni yosh sovet mahalliy hokimiyatlarining birinchi yordamchilari bo'lgan davlat jasoratli politsiya (militsiya) otryadi tuzildi⁴². Politsiya (militsiya) otryadi Qizil Armiyaning bosmachilik harakatni yo'q qilish uchun qahramonona kurashda jiddiy tayanch bo'ldi.

Respublikaning quyidagi 28-ta punktida ichki ishlar bo'limlari tashkil etilgan: Darg'on-Ota, Pitnak, Xazorasp, Beshariq, Xonqa, Yangi-Urganch, Qiyat, Qayat, Shanobod, Gurlan, Yangiariq, Kattey, Qipchoq, Mang'it, Kilyichboy, Kukchag'a, Porsa, Xo'jayli, Kuhna-Urganch, Shumanoy, Qo'ng'iroq, Ilyoliy, Tashhovuz, Manak, Gazmabod, Shayx, Qo'shko'prik va Taxtabozor⁴³. Har bir nuqtada 4 dan 25 gacha piyoda va otliq militsionerlar bor edi. 15-aprelda Qizil Armiyani kutib olish uchun aholi o'rtasida politsiyaga safarbarlik o'tkazildi, Har bir oilaning to'rt o'g'ildan biri safarbar qilindi. 1922-yil bahor va yoz oylaridan boshlab ingliz imperialistlari bosmachilik niqobi ostida Sovet hokimiyati va O'rta Osiyoga qarshi noroziliklarini kuchaytirdilar, Sovetlarning III Butun Xorazm Qurultoyi qarori bilan ko'ngilli militsiyalar soni ko'paytirildi. Ko'ngillilarga miltiqlar berildi va ular umumiy vazifalardan ozod qilindi. Ko'ngilli qo'shinlar Junayidxonning bosmachi va askarlarini cho'l qumlariga chuqur haydab yubordilar.

Ichki ishlar nozirligining 1922-yil 3-dekabrda buyrug'i bilan shahar qo'riqlash bo'limi Respublika militsiya boshqarmasi deb nomlandi va uning qisman shahar va hukumat binolarini qo'riqlash funksiyasi vaqtincha Xiva shahar harbiy komendanti ixtiyoriga o'tkazildi⁴⁴. 1923-yil yanvar oyida militsiya boshliqlari bo'limlarida 38 kishi ishlagan (6 nafari mahalliy 31 ta katta militsiya xodimlari boshqaruvida, 1 ta instruktor) iborat bo'lgan⁴⁵ va 500 ga yaqin oddiy militsionerlar bor edi; o'sha paytda bo'lib o'tgan Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 11-sessiyasi qarori bilan yangi imtiyozlar berildi: politsiya maydoni kattaroq yer uchun soliq to'lamaganligi bilan birga tanaplarga o'zlariga tekin oziq-ovqat tarqatish va

⁴¹ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 14-varaq

⁴² O'zR MDA, 72-fond, 1-ro'yxat, 46-ish, 69-varaq

⁴³ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 4,8-varaq

⁴⁴ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 29-ish, 57-varaq

⁴⁵ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 103-varaq



2-TOM, 2-SON

otlarini boqish uchun harbiy ta'minot hisobiga tashkil etishgan⁴⁶. Yangi yil boshlanishi bilan Junayidxon to'dalari yana respublikaning tinch qishloqlariga vahshiyona hujumlarini davom ettirdilar.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Prezidiumining 1923-yil 4-fevraldagi qarori bilan politsiya otryadlari kaltamanlarni to'liq yo'q qilinmaguncha kurashishda davom etishlarini e'lon qildi⁴⁷. Ayniqsa, Xiva shahrini boshqa yo'nalishlarga kuchlarni safarbar qilish chog'ida kaltamonlarning tasodifiy hujumlaridan himoya qilish maqsadida Ichki ishlar vazirligining 15-fevraldagi buyrug'i bilan oliy jangchilar otryadi (Naukarok) tuzildi⁴⁸. Nozirlikning 29-martdagi yana bir buyrug'i bilan mamlakat ichkarisida josuslikni kamaytirish maqsadida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga kelgan va ketib qolgan xorijliklarni hisobga olish vazifasi militsiya boshliqlari bo'limiga yuklangan. 1923-yil aprelgacha Mamlakat politsiyasi 600 kishiga yetdi (400 dan ortiq otliq). Xivadan tashqari yana 27 ta punktda militsiya bo'limlari joylashgan bo'lib, ularga 30 nafar katta politsiyachi rahbarlik qilgan⁴⁹. Ammo mamlakatning og'ir iqtisodiy va moliyaviy ahvoli tufayli may oyining oxiriga qadar Xorazm xo'jalik kengashi muassasalarni qayta tashkil etish loyihasini ishlab chiqdi.

Respublika davlat organlarida esa xodimlarning qisqarishi va iqtisodiy kengash ichki ishlar xodimlari sonini 300 kishiga qisqartirish va ularni mahalliy jamg'armalarga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Ichki ishlar nozirligining buyrug'i bilan bu 250 ot va 50 piyoda militsionerlar barcha majburiy soliqlardan ozod qilingan. Mahalliy hokimiyat organlari ularga 20 rubl miqdorida oylik qarz berdi⁵⁰. Yana uyushqoqlik bilan ish olib borish uchun ushbu 27 ta mahalliy bo'linmalarining barchasi 3 ta: Xiva, Urganch va Porsi tumanlariga tarqatildi, bu tumanlarga vaqt o'tishi bilan ularning yordamchilari bo'lgan tuman boshliqlari boshchilik qildilar. Bu olti nafardan tashqari yana 9 nafar militsiya boshliqlari bo'limida 3 nafar instruktor va 1 nafar tergovchi ishlagan. Instruktorlar joylardagi bo'limlar faoliyatini tashkil etish va tekshirishda bevosita ishtirok etib, fuqarolardan kelib tushgan arizalar asosida tergovchi tomonidan tergov harakatlari olib borilgan.

1923-yil oktyabrda IV Butun Xorazm Kengashlar Qurultoyi ishtirokchilari hukumat boshlig'i Abdulla hoji boboning boshchilikning kuchayishiga va milliy adovatning

⁴⁶ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 29-ish, 57-varaq

⁴⁷ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 25-ish, 292-varaq

⁴⁸ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 26-varaq

⁴⁹ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 25,28-varaq

⁵⁰ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 14-varaq



2-TOM, 2-SON

keskinlashuviga sabab bo'lgan xatti-harakatlarini ko'rsatdilar⁵¹. Xususan, barcha militsiya xodimlarining mahalliy jamg'armalarga o'tkazilishi ularning turmush farovonligining yomonlashishiga va natijada xizmatning yomonlashishiga, militsiya saflarining tartibsizlanishiga va huquqlarining suiiste'mol qilinishiga sabab bo'ldi⁵². Shuning uchun Qurultoy qarori va Markaziy saylov komissiyasining qarori bilan 28-oktabrda ichki ishlar organlarini qayta tashkil etish boshlandi va militsiya xodimlari soni 485 nafarga ko'paytirildi. Ular militsiyaga ishga kirishga ixtiyoriy ravishda, faqat 25-40 yoshlardagi dehqonlar va sobiq harbiylar safidan kelganlar qabul qilinishi va qurultoydan so'ng Xorazm Respublikasi 4 viloyatga bo'lingan: Xazoraplar (65 militsioner), Tashhovuz (130 militsioner), Yangi-Urganch (70 militsioner) va Xo'jayli (120 militsioner) ish o'rinlarini tashkil etildi. Xiva shahri alohida hisoblanib, o'z shahar ijroiya qo'mitasiga (90 nafar militsiya xodimi) ega bo'lgan. Barcha viloyatlarda 2 nafardan iborat hududiy ichki ishlar boshqarmalari tashkil etilgan bo'lib, tuman bo'limlarida jami 35 nafar yuqori lavozimli xodim faoliyat yuritgan.

Markaziy saylov komissiyasining 5-noyabrdagi buyrug'i bilan Ichki ishlar nozirligi barcha aholi punktlarini ichki muammolarni bartaraf etish va shaharlarni himoya qilishda militsiyaga yordam berish uchun o'z qo'riqlash otryadlarini tuzishni taklif qildi. Ushbu taklifga muvofiq, militsiya bo'limlarida majburiy ro'yxatdan o'tgan holda shaxsiy qurollarni olib yurishning to'liq erkinligi e'lon qilindi. Ko'ngilli qo'riqchilar otryadiga bepul o'q-dorilar berildi. Militsiya boshliqlari bo'limlarni qayta tashkil etish va qo'riqchilar otryadlarini yaratishda bevosita ishtirok etgan mahalliy instruktorlar va rahbarlar edi. 1924-yil boshida militsiya qayta har xil turdagi o'qotar qurollar o'rniga bir xil besh o'qli miltiqlar bilan qurollantirildi⁵³. 1924-yil 10-24-yanvarda Xiva qamalida Xorazm poytaxtini bosmachilar va aksilinqilobchilarning ko'plab bosqinlaridan himoya qilgan militsiya bo'linmalari qattiq tashkilotchilik, inqilob ishiga fidoyilik ko'rsatdilar va respublikada osoyishtalik o'rnatildi, bundan biroz fursat o'tib xorazmliklar katta tarixiy voqeaga: O'rta Osiyo Sovet respublikalarining chegaralarini belgilashga hozirlik ko'rayotgan edi. Shu munosabat bilan Sovet hokimiyati xodimlari qisqartirildi, xususan, militsiya boshliqlari bo'limining shtatlari aprel oyining oxiriga qadar 214 kishiga qisqartirilib, shu jumladan ma'muriy bo'limda, 10 nafar katta va 200 nafar oddiy militsiya xodimlari⁵⁴ xizmat qilayotgan edi. Yangi tashkil etilgan avtonom viloyatlarda (Turkman va Qoraqalpoq) hamda Yangi-Urganch viloyatida

⁵¹ O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 84-varaq

⁵² O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 70-ish, 24-varaq

⁵³ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 70-ish, 1-varaq

⁵⁴ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 6-varaq



2-TOM, 2-SON

har biri 3 kishidan iborat viloyat ichki ishlar bo'limlari tashkil etildi. Ichki ishlar vazirligining 1924-yil 30-apreldagi buyrug'i. Politsiya boshliqlari bo'limi Militsiya bo'limi deb o'zgartirildi⁵⁵. 1924-yil 16-iyuldan Ichki ishlar nozirliqi tugatilishi munosabati bilan Militsiya bo'limi Xiva Harbiy kengash va boshqa viloyat inqilobiy qo'mitalariga bo'ysundirilgan⁵⁶. 1-avgustga qadar Xiva shahar inqilobiy qo'mitasining militsiya bo'limida bor-yo'g'i 33 kishi (bosh kotib, 2 nafar katta militsiya xodimi va 35 nafar oddiy askar shtabida ishlagan⁵⁷. Yangi-Urganch viloyat boshqarmasining umumiy soni 62 kishi tashkil etar edi. 1924-yil 30-noyabrda Xorazm Respublikasi hukumati o'z vakolatlarini iste'foga chiqargach, militsiya bo'limi unga bo'ysundi. Xorazm inqilobiy qo'mitasiga yangi tashkil etilgan Qoraqalpog'iston muxtoriyati Politsiya bo'limi viloyat ichki ishlar xalq komissarligi tasarrufiga o'tkazildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 29-ish, 57-varaq
- 2.O'zR MDA, 71-fond, 1-ro'yxat, 25-ish, 292-varaq
- 3.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 26-varaq
- 4.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 25,28-varaq
- 5.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 97-ish, 14-varaq
- 6.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 70-ish, 1-varaq
- 7.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 6-varaq
- 8.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 18-varaq
- 9.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 97-varaq
- 10.O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 98-varaq

⁵⁵ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 18-varaq

⁵⁶ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 97-varaq

⁵⁷ O'zR MDA, 76-fond, 1-ro'yxat, 124-ish, 98-varaq



2-TOM, 2-SON

OLIV TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUV JARAYONINI
BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshnazarov Zaurbek Baxtiyor o'g'li

Oriental universiteti ta'lim menejmenti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning pedagogik qarashlari va o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhitini yaratishning hozirgi kundagi holati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, raqamli texnologiyalar, elektron resurslar, axborotlashtirish, elektron baza, kompyuter.

ABSTRACT

This article describes in detail the pedagogical views of local and foreign researchers on creating a digital educational environment in higher education institutions and the current state of creating a digital educational environment in higher educational institutions.

Key words: digital education, digital technologies, electronic resources, information, electronic database, computer.

Mamlakatimizda yangi maktab muhitini yaratish, shuningdek maktabni raqamlashtirish yuzasidan jadal ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 martdagi PQ-4642-sonli qarori asosida olib borilmoqda. Qarorda 2020 yil 1-sentabrga qadar barcha umumta'lim maktablarida jurnal va o'quvchilarning kundaliklarini qog'oz shaklida yuritishni bekor qilish hamda ularni elektron tarzda yuritishga mo'ljallangan yagona axborot tizimini ishga tushirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan edi. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida Kundalik.com platformasi ishlab chiqildi va qisqa vaqt maboynda bir qancha mavjud pedagogik muammolarning bartaraf etilishiga zamin yaratildi. Kundalik.com platformasida o'quvchilar uy vazifalari, dars jadvali, baholari haqida doimiy ravishda ma'lumot olishlari mumkin. Shuningdek, onlayn test va masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyati ham mavjud. O'qituvchilar esa jurnal, dars jadvali, o'quv rejasidan elektron tarzda foydalanishi, virtual konferensiyani amalga oshirib, e'lonlarni ham qulay tartibda berib borishi, o'z o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan perativ muloqotni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu raqamli platforma o'qituvchilarga ortiqcha qog'oz



2-TOM, 2-SON

hujjatlarini to'ldirishga vaqt sarflamaslikka va vaqtini ko'proq a'lim jarayoniga ajratishga, o'qitish ishlariga ijodiy yondashishga yordam beradi. Tizimda qo'shimcha foydali funksiyalar, xususan zarurat bo'lganida masofadan turib shug'ullanish imkoniyati ham mavjud. Umuman olganda, milliy loyiha muvofiqlashtirishni nazarda tutadi va ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishlari uchun o'quvchilarga sharoit yaratish hamda sifatli ta'lim olishdan teng foydalanishni ta'minlaydi. Raqamli maktab elektron ta'lim mazmuniga bepul kirishni nazarda tutadi va har bir o'quvchining qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini individuallashtirishga keng imkoniyatlarni yaratadi. Xozirda elektron kontent hajmi ortib bormoqda – darsliklar raqamlashtirilmoqda, onlayn kurslar ishlab chiqilmoqda.

Aksariyat tadqiqotlarda ta'lim tizimini axborotlashtirish va raqamlashtirishning dolzarbligi, ahamiyati, uni amalga oshirishga imkon beradigan omillar va to'siqlar o'rganilgan. Ular ko'rsatilishicha, ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash bir qator afzalliklarni namoyon qiladi. Xususan, o'qitishda tezkorlikka erishish (o'qitishning vaqti va joyini o'zgartirish); butun hayot davomida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatining yuzaga kelishi; o'quvchi, talaba, tinglovchi (mutaxassis)larni avvaldan loyihalangan individual o'qitish asosida kasbiy qayta tayyorlash kurslari va dasturlari bo'yicha tayyorlash imkoniyatining yaratilishi.

Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi OTMda ham raqamli ta'lim muhitini shakllantirish turli shakllarda kechadi. Bu o'rinda E.V.Ustyujanina, S.G.Evsyukov quyidagi shakllarni keltirib o'tadi: mavjud o'quv materiallari, shu jumladan, ma'ruza, taqdimot, darslik, mustaqil ish topshiriqlari hamda bilimlarni nazorat qilish vositalarini elektron variantga o'tkazish; pedagog va talabalarning o'zaro hamkorligiga asoslangan interfaol elektron muhitni, xususan, pedagoglarning elektron kabinetlarini, vebinar, bahs-munozara, forumlar o'tkaziladigan auditoriyalarni shakllantirish; o'quv vositalari: elektron darsliklar, elektron masalalar to'plami, video ma'ruza, kvestlar, kompyuter o'yinlari kabi yangi tiplarini yaratish; elektron ta'lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga o'qitishning mutlaqo yangi shakllarini yaratish – obrazli axborotlarni uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlarni tashkil etish orqali turli vaziyatlari modellashtirish, bellashuv o'yinlarini imitatsiyalash va hokazolar; sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'qitish jarayoniga kiritish.

Bugungi kunda esa ta'lim muhiti innovatsion xarakter kasb etmoqda. Ta'lim muhitining innovatsion xarakterga ega bo'lishi tabiiy ravishda uni mazmunan yangilanishiga olib keldi. Shu sababli zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslanishi ta'lim muhitini mazmunan yangilanishini ta'minladi.



2-TOM, 2-SON

Bizning fikrimizcha, raqamli ta'lim muhitida ham S.V.Tarasov aytib o'tganidek, mavjud komponentlarga ega va ular bir qadar to'ldiriladi. Xususan, raqamli ta'lim muhiti mazmunli, metodik va kommunikativ komponentlar bilan birgalikda texnologik komponent bilan ham to'ldiriladi. Binobarin, raqamli texnologiyalar, xususan, ta'limda qo'llanilayotgan texnologiyalar barchasi kompyuter qurilmasi, multimediya vositalaridan tarkib topgan.

A.B.Fedorov zamonaviy olamdagi mediata'limni ommaviy axborot bilan mulkot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, media matnlarni to'laqonli idrok etish, talqin va tahlil qilish, baholash media texnika yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli shakllariga o'qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi. Elektron darsliklar yarata olish va ular bilan erkin faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish; Zoom, Google meet, Google Disk, Camtasia studio kabi dasturlarda erkin ishlay olish; masofaviy ta'lim platformasini kreativ yangiliklar bilan boyitib borish va boshqalar.

OTMda raqamli ta'lim muhitini hosil qilish uchun, eng avvalo, o'quv muassasasining ichki jarayonlarini isloh qilish talab qilinadi. Uning "raqobatga bardoshligini saqlab qolish uchun o'quv jarayoniga o'z vaqtida yangi texnologiyalarni joriy qilish yangi avlodning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash"[1, 45]da yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

D.P.Xashimova, R.A.Parpievaning Internet manbasiga tayanib ma'lum qilishicha, "bugungi kunda atigi o'nga yaqin davlatdagi talabalarning 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning internetdan foydalanishga sharoiti etarli. Qolgan davlatlarda bu ko'rsatkich ancha past. O'zbekiston Respublikasida ham bu ko'rsatkich yuqori darajada emas. Buning asosiy sababi chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir".

Mualliflar D.P.Xashimova, R.A.Parpieva oliy ta'lim tizimida AKTdan samarali foydalanish muammosini o'rganar ekan, bu borada hal qilinishi zarur bo'lgan muhim vazifalarni aniqlashga e'tiborni qaratadi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ayni vaqtda oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini oshirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir: Internet infratuzilmasini yaxshilash; mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish; yoshlar, xususan, talabalar tomonidan zamonaviy AKTning so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish; o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'lamini kengaytirish; axborot resurslari, o'qitish vositalari, masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish; ijodkor talabalarni universitetning raqamlashtirish



2-TOM, 2-SON

loyihalariga jalb qilish; OTM faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish; yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, media studiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash; zamonaviy AKT va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash; bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun Internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish; real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video konferensiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish; bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish; ta'lim sub'ektlarining media kompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish (Youtube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo'lgan videodarslarini o'zbek tilida ham ko'paytirishni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash); ta'lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash jarayonini nazoratga olish va amaliy qo'llab-quvvatlash; chekka hududlarda ham Internet aloqasi, texnik jihozlarning tizimli faoliyatini yo'lga qo'yish; barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni Veb-saytlarga muntazam joylab borish; elektron boshqarish tizimlarini amaliy faoliyatga keng joriy etish va keraksiz hujjatlar bilan ishlashni keskin kamaytirish; masofaviy ta'lim platformasi, shu bilan birga barcha ijtimoiy tarmoqlarda subektlar mas'uliyatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish[11, 154]; ta'lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni, ta'lim muassasasining barcha ish faoliyati, jumladan, o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish; talabalar, pedagoglarning ilmiy-pedagogik izlanishlarini amalga oshirish vositasi sifatida o'quv muassasasida zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish.

U.M.Xalikova tomonidan olib borilgan tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida elektron resurslardan foydalanish muammosi tadqiq etilgan. Tadqiqotchi bu borada soha oldida turgan vazifalardan kelib chiqqan holda ularni ijobiy hal qilish yo'llari,



2-TOM, 2-SON

maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z faoliyatida elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganar ekan, bu jarayonning natijasi kafolatlaydigan samaralar xususida quyidagilarni aytib o'tadi: multimedia taqdimotlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tushunarli bo'lgan majoziy malumot turiga ega bo'lganligi sababli ular o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtiradi va mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshiradi; kompyuter va multimedia effektlarining jozibadorligi tufayli bolada o'qish uchun motivatsiya va matematikaga qiziqish kuchayadi; bolalarda olingan bilim uzoq vaqt davomida xotirada qoladi va ularni amaliy qo'llash uchun tiklash osonroq bo'ladi.

Bugungi kunda raqamli ta'limning mamlakatimiz ta'lim tizimida o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda, ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanlarni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida talabalarning mustaqil o'rganish, shaxsiy o'rganishga moslashish va o'z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yanayam rivojlanadi. Dars jarayonlarini raqamli kontentda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish o'quvchilarning o'zlari qiziqqan sohada kompetensiyalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta'limni raqamlashtirish jarayonini yanada rivojlantirish va umumta'lim maktablarida samaradorlikni oshirish uchun biz quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

ta'lim subyektlarining mediakompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish;

AKTning turli mavjud dasturlaridan foydalanish, shuningdek videodarslar kontentini yanada boyitish;

ta'lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash jarayonini amaliy qo'llab-quvvatlash;

ta'limni raqamlashtirishga oid barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni web-saytlarga muntazam joylab borish;

yaratilgan elektron boshqarish tizimlarini faoliyatga keng joriy etish;

Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish maqsadlari:

- ta'lim faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- tahliliy ma'lumotlarni sahklantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;



2-TOM, 2-SON

- ta'lim jarayonini boshqaruvchi (ish beruvchi), o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- ta'lim jarayonida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish masofaviy ta'lim platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham ta'lim subyektlarining mas'uliyatligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR

1. Алюнова Т.И. Проблемы цифровизации в современном вузе. Педагогика и современное образование: традиции, опыт и инновации : сб. ст. VIII Междунар. науч.-практ. конф.,- Пенза : МЦНС «Наука и Просвещение», 2019. - С. 45.
2. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. “Цифровое образование” как системообразующая категория: подходы к определению // Ж. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. – М.: 2018. - № 3. – С. 25-36;
3. Зайцева Ж.Н., Солдаткин В.И. Генезис виртуальной образовательной среды на основе интенсификации информационных процессов современного общества // Ж. Информационные технологии. – Киев: 2000. - № 3. – С. 44-48;
4. Касперская Н.И. Цифровая экономика и риски цифровой колонизации: информационный портал семейной политики (2019) // https://ivan4.ru/news/traditsionnye_semeynye_tsennosti.
5. Махмудов А.Х., Абдурахмонов З.Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари // Ж. Academic research in educational sciences. – Чирчик: 2021. – 98-б.
6. Никулина Т.В., Е.Б.Стариченко. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление //Ж. Педагогическое образование в России. – Екатеринбург: 2018. - № 8. – С. 107;
7. Носирова Д.С. Рақамли технологиялар воситасида ўқув жараёнини ташкил этишнинг муаммолари ва истиқболлари // Models and methods in modern science:International scientific-online conference. - p. 87.
8. Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология // Ж. Вестник Санкт-Петербургского ГУа им. А.С.Пушкина. – СПб.: 2011. - № 11. – С. 133-138.
9. Устюжанина Е.В., Евсюков С.Г. Цифровизация образовательной среды:



2-TOM, 2-SON

возможности и угрозы // Ж. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. – М.: 2018. - № 1 (97). – С. 3-12.

10. Халикова У.М. Рақамли технологиялар воситасида мактабгача ёшдаги болаларнинг элементар математик кўникмаларини шакллантириш // Ж. Scientific progress. – Chirchik: 2021. Vol.2. Ussue 4. – p. 39.

11. Хашимова Д.П., Парпиева Р.А. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истикболлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron j. – Т.: 2020. - № 3, may-iyun. – 151-152-б.

12. Электронные компоненты информационно-образовательной среды / В.А.Красильникова, П.В.Веденеев, А.С.Заварихин, Т.Н.Казарина // Ж. Открытое и дистанционное образование. – Томск: 2002. Выпуск 4 (8). – С. 54- 56.

13. Bakhromjan, D. (2023). Preparing Future Teachers for Innovative Activity is an Important Pedagogical Need. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(6), 27-30.

14. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.

15. Xonqulov, S. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI YARATISHNING KONSEPTUAL MAZMUNI. *Наука и инновация*, 1(4), 128-131.

16. Xonqulov, S. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINI YARATISHNING USTIVOR TAMOYILLARI. *Наука и инновация*, 1(4), 132-135.

17. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).



2-TOM, 2-SON

GULKARAMNING INSON SOG'LIGI UCHUN FOYDALI XUSUSIYATLARI

Pirimqulova Muhabbat Xayitovna

Muhabbatpirimqulova8@gmail.com

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya: Maqolada gulkaramning vatani, qanday taomlarda iste'mol qilinishi, kaloriyasi, tarkibi, vitaminlari, inson tanasiga ta'siri, erkaklar, ayollar va bolalarda foydali tomonlari, Gulkaram haqida faktlar, energetik meva va sabzavotlar" ro'yxatida o'rni, bir qancha kasalliklarning oldini oluvchi sabzavot ekanligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: gulkaram, kibr karami, gulkaramning foydali xusisiyatlari, tarkibi, immunitet tizimi, ishemik hujumlar, kasallikning rivojlanish xavfi, vitaminlar, oqsillar, yurak kasalliklari, asab tizimi, stress, kaloriya.

Annotation: In the article, the homeland of cauliflower, in which dishes it is consumed, calories, composition, vitamins, effects on the human body, beneficial aspects for men, women and children, facts about cauliflower, its place in the list of "energetic fruits and vegetables", prevention of several diseases gives information that it is a vegetable.

Key words: Cauliflower, Cypriot cabbage, beneficial properties of cauliflower, composition, immune system, ischemic attacks, risk of disease development, vitamins, proteins, heart diseases, nervous system, stress, calories.

Gulkaramning vatani Kibr hisoblanadi, shuning uchun uni oldiniga "Kibr karami" deb atashgan. U 2500 yildan buyon iste'mol qilinadi. Gulkaram qadimiy Misr va Eronda yetishtirilgan. Keyin u Italiyada paydo bo'ladi, bu yerdan gulkaram XVI asrda butun Yevropa bo'ylab tarqaladi.

Hozirgi paytda sho'rvalar va sabzavotli taomlarning masallig'i sifatida ishlatiladi. Uni qaynatib pishirish va salatlarda pishirilmagan holda foydalanish mumkin.

Gulkaramning foydasi sog'lom ovqatlanish tarafdorlari uchun qiziq savol bo'ladi. Chiroyli va mazali sabzavotlardan to'g'ri foydalanish uchun siz uning xususiyatlarini va xususiyatlarini tushunishingiz kerak. Gulkaramning kaloriyasi juda past bo'lsa ham, to'yimlilik hissini beradi, shu tufayli uni semirishdan qo'rqmagan holda iste'mol qilish mumkin. Gulkaram tarkibida kaliy, magniy, kaltsiy, marganets, temir, mis, rux, ftor, karotinlar, C, K, B1, B2, B6 vitaminlari mavjud. Ushbu sabzavot saraton kasalliklari profilaktikasi uchun tavsiya etiladi.



2-TOM, 2-SON

Gulkaramdagi enzimlar organizmdan toksinlarni chiqarishga yordam beradi. O'z vaqtida chiqarib tashlanmagan toksik birikmalar hujayralarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'smalar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Enzimlar gulkaramdagi vitamin va minerallar bilan birikib, uning saratonga qarshi kurashish xususiyatini kuchaytiradi.

Albatta nima uchun gulkaram tanaga foydali degan savol barchaga birdek tug'ilishi mumkin. Gulkaram tarkibidagi vitaminlar inson tanasiga juda foydali ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, mahsulot:

- yaxshi tabiiy antioksidant bo'lib, shish paydo bo'lish xavfini kamaytiradi;
- har qanday tabiatning yallig'lanishiga qarshi kurashishga yordam beradi;
- vitamin yetishmasligining boshlanishiga to'sqinlik qiladi va immunitetni mustahkamlaydi;
- to'plangan toksinlar va toksik moddalarni tanadan olib tashlaydi;
- qo'shimcha funtni yo'qotishga yordam beradi;
- gormonal va reproduktiv tizimga foydali ta'sir ko'rsatadi;
- ko'z sog'lig'ini himoya qiladi;
- qon tomirlarini kuchaytiradi va yurak kasalliklarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Gulkaram diuretik hisoblanadi va shish bilan kurashishda yordam beradi. Bundan tashqari, u asab tizimini kuchaytirish va kuchni oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ayol tanasi uchun bu sabzavot katta ahamiyatga ega. Avvalo menyuga gulkaram qo'shish og'riqli davrlar va menopauza paytida beqaror gormonal fon uchun tavsiya etiladi. Mahsulot noqulay his-tuyg'ulardan xalos bo'lishga yordam beradi, Asab tizimidagi buzilishlar uchun gulkaram sho'rva, garnitür va bu sabzavotli salatlar foydali bo'ladi. Mahsulot surunkali charchoqni yo'qotishga yordam beradi, kuchni oshiradi va kuch beradi, ayniqsa ertalab qabul qilinganda foydasi ko'proq bo'ladi. Agar odatdagi parhezga kiritilgan bo'lsa, terining salomatligi tezda yaxshilanadi, gulkaram kollagen moddalarini ishlab chiqarishda faol qatnashadi, husnbuzarlarning oldini oladi va yoshartiruvchi ta'sirga ega.

Gulkaramning erkaklar uchun bir qancha foydalari mavjud:

Gulkaram erkak tanasi uchun juda foydali sabzavot hisoblanadi. Mahsulot tarkibidagi qimmatli moddalar sog'lom jinsiy faoliyat uchun javobgardir va reproduktiv funksiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, sabzavot 40 yildan keyin prostata saratoni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Mahsulot erkak sportchilar uchun foydalidir, u mushaklarga zarar bermasdan yog'massasidan xalos bo'lishga yordam beradi, chidamlilik va quvvatni oshiradi. Gulkaram soch



2-TOM, 2-SON

follikulalarini kuchaytiradi va qon tomir tizimini yaxshilaydi va jigarni tozalashga yordam beradi. Bu yoshligida ishemik hujumlar xavfini kamaytiradi.

Bolalarda gulkaramni muntazam iste'mol qilish juda ham foydali hisoblanadi: to'g'ri ishlatilsa, gulkaram bolaning immunitetini va uning ovqat hazm qilish tizimini mustahkamlaydi. Chaqaloqlar va katta yoshdagi bolalar uchun gulkaramning foydasi ich qotishi va sekin hazm qilish, dietada vitamin etishmasligi bilan namoyon bo'ladi. Gulkaramning foydali xususiyatlari kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Sabzavot tanaga foydali ta'sir ko'rsatadi, nafaqat oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinganda, balki uning asosida dorivor aralashmalar va ichimliklar tayyorlanadi.

Gulkaram tabiiy B vitaminlariga boy bo'lgan sabzavotdir. U ovqat hazm qilish va qon aylanishiga yordam berish kabi ko'plab sog'liq uchun foydali xususiyatlarga ega.

U saraton kasalligidan himoya qiladigan antioksidantlar va fitonutrientlar bilan ta'minlaydi. Shuningdek, u vazn yo'qotish va ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun, o'qish va xotira uchun zarur bo'lib boshqa ko'plab muhim oziq moddalarni o'z ichiga oladi.

Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (CDC) ning ma'lumot berishicha gulkaram 24-o'rinni "energetik meva va sabzavotlar" ro'yxatiga kiritadi.

Gulkaram haqida tezkor faktlar:

- Gulkaram vitaminlarning yaxshi manbai hisoblanadi.
- Uning tarkibiy qismlari suyaklarni mustahkamlashga, yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashga va saraton kasalligini oldini olishga yordam beradi.
- Gulkaramni iste'mol qilishning mazali usullariga karam qobig'i pizza va gulkaram va pishloq sho'rva kiradi.
- Qonni suyultiruvchi vositalardan foydalanadigan odamlar to'satdan ko'p gulkaramni iste'mol qilmasliklari kerak, chunki K vitaminining yuqori miqdori dorilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Gulkaram ozuqa moddalari va vitaminlarga boy.

Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi Departamenti (USDA) Milliy ozuqaviy ma'lumotlar bazasiga ko'ra, yarim dyuymli bo'laklarga bo'lingan va og'irligi taxminan 107 gramm bo'lgan tug'ralgan xom gulkaramning bir stakan ishonchli manbasida: 2 gramm (g) protein, 0,3 gramm yog', 5 g karbongidrat, shu jumladan 2 g shakar, 24 milligramm (mg) kaltsiy, 16 mg magniy, 47 mg fosfor, 320 mg kaliy, 51,6 mg S vitamin, 16,6 mikrogram (mkg) K vitamini, 0,197 mkg B6 vitamini, 61 mkg folat mavjud. Bir stakan xom gulkaram quyidagilarni ta'minlaydi: Kundalik C vitamini ehtiyojining 77 foizi, kundalik K vitamini ehtiyojining 20 foizi, B6 vitamini va folatga bo'lgan kunlik ehtiyojning 10 foizi yoki undan ko'prog'ini ta'minlab beradi.



2-TOM, 2-SON

Bundan tashqari, ozroq miqdorda tiamin, riboflavin, niatsin, pantotenik kislota, kaltsiy, temir, magniy, fosfor, kaliy va marganets mavjud. Barcha turdagi meva va sabzavotlarni iste'mol qilish ko'plab salbiy sog'liq sharoitlarini rivojlanish ehtimolini kamaytirishi aniqlandi.

Ko'proq o'simlik ovqatlarini iste'mol qilish, masalan, gulkaram, semizlik, diabet, yurak kasalliklari va umumiy o'lim xavfini kamaytiradi, shu bilan birga sog'lom terini, energiyani oshiradi va umumiy vaznni kamaytiradi.



Gulkaramda ozuqaviy moddalar va suv ko'p bo'ladi. Ikkala tarkib ham ich qotishining oldini olish, ovqat hazm qilish tizimini sog'lom saqlash va yo'g'on ichak saratoni xavfini kamaytirish uchun muhimdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gulkaram immunitet tizimini va yallig'lanishni tartibga solishga yordam beradi. Natijada, buyurak qon-tomir kasalliklari, diabet, saraton kabi yallig'lanish bilan bog'liq holatlar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Yuqori ravishda gulkaramni iste'mol qilish bir qancha kasallikning rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi:

- koroner yurak kasalligi;
- insult;
- gipertoniya;
- qandli diabet;
- semizlik;
- ba'zi oshqozon-ichak kasalliklari.

Bu sabzavotni ko'proq iste'mol qilish qon bosimi va xolesterin darajasini pasaytirishga, insulin sezgirlikini yaxshilashga va semirib ketgan odamlar uchun vazn yo'qotishga yordam beradi.

Gulkaram hujayra mutatsiyalarini oldini olishga va stressni kamaytirishga yordam beradigan antioksidantlarni o'z ichiga oladi.



2-TOM, 2-SON

Ushbu antioksidantlardan biri indol-3-karbinol yoki I3C bo'lib, odatda karam, brokkoli va gulkaram kabi sabzavotlarda mavjud. Bu erkaklar va ayollarda ko'krak va reproduktiv saraton xavfini kamaytirishi ko'rsatilgan



1-rasm. Turli xil karam mevalari

Hozirgi kunda olimlar gulkaramni sulforafan saraton kasalligini kechiktirishi yoki to'sqinlik qilishi mumkinligini aniqlash uchun o'rganishmoqda. Hozirgacha melanoma, qizilo'ngach, prostata va oshqozon osti bezi saratoni uchun umid beruvchi natijalar mavjud.

K vitaminini kam iste'mol qilish suyak sinishi va osteoporozning yuqori xavfi bilan bog'liq. K vitaminini iste'mol qilish suyak matritsasi oqsillarining modifikatori bo'lib, kaltsiyning so'rilishini yaxshilash va siydikda kaltsiyning chiqarilishini oldini olish orqali suyak sog'lig'ini yaxshilashi mumkin.

Ko'p miqdorda tola iste'mol qilish yurak-qon tomir muammolari xavfini kamaytirishi aniqlandi. Kaltsiy preparatlarini qabul qiladigan odamlar qon tomirlarida kaltsiy to'planishi xavfi ostida bo'lishi mumkin, ammo K vitaminini kaltsiy bilan birga qabul qilish bu sodir bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, gulkaramni kundalik hayotda iste'mol qilish sog'lom hayot tarzi uchun juda katta ahamiyatga ega. Qolaversa, bir qancha kasalliklarning oldini olish yoki xavfini kamaytirishi bilan birgalikda immunitet tizimini ko'tarishi bilan barchaga birdek ma'qul kaladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ríos-Hoyo, A., & Gutiérrez-Salmeán, G. (2016). New dietary supplements for obesity: what we currently know. *Current obesity reports*, 5(2), 262-270.
2. Rizzo, G., Baroni, L., & Marzatico, F. (2018). Dietary oxalates and their role in human health. *European review for medical and pharmacological sciences*, 22(3), 823-835.
3. Li, Y., Zhang, J., Xu, J., Wang, H., Yeung, S., Liang, Y., ... & Zhang, W. (2017). Cruciferous vegetable consumption and the risk of female lung cancer: a prospective study and a meta-analysis. *Annals of Oncology*, 28(11), 2456-2464.
4. Yang L.Liu M.Wang F.Yuan J.Huang X.Li G.Cui X.Yu L.Wang X.Xiao W.Gao T.Zhu S.Lin Q.Zhao Y.Ou Z.Ye Y.Gu D.Zhou X.Cai L.(2019).Cauliflower: A cruciferous vegetable with multiple health benefits.Frontiers in Chemistry..7..doi:10.3389/fchem.2019.00009



2-TOM, 2-SON

5. Seo M.K.Jeong H.W.Choi H.S.Jeong I.H.Choi B.K.Jun S.H.Park K.G..(2020).Effects of Cauliflower Extracts on Adipogenesis and Lipolysis in 3T3-L1 Adipocytes.Molecules..25(14)..doi:10.3390/molecules25143231

6. Traka M.H.Mithen R.F.Brown J.E..(2009).Dietary Glucosinolates: Their Bioavailability and Importance to Health.International Journal of Molecular Sciences..10(4)..doi:10.3390/ijms10041690



2-TOM, 2-SON

GIPO TAKTIK QURILMALAR DERIVATSIYASI VA ULARNING
MONOPROPOZITIV STRUKTURALARI

Kurbanova Raxima Abdullayevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Gipotaktik qurilmalarning sintaktikasi va semantikasi parataktik qurilmalardan farqlangani bois ham gipotaktik qurilmaning predikativlik belgisi parataktik qurilmalarning predikativlik belgilaridan tubdan farqlanadi. Buning asosiy boisi murakkab sintaktik qurilmaning mazkur turida komponentlarning o'zaro bog'lanishi tobelik munosabatini taqozo etishidadir.

Kalit so'zlar: gap, jumla, propozitsiya, prisuppozitsiya, so'z, til, nutq, til va nutq birliklari, tema-rema, struktur, semantik va pragmatik faktorlar.

ВЫВОД ГИПОТАКТИЧЕСКИХ УСТРОЙСТВ И ИХ МОНО
ПРОПОЗИЦИОНАЛЬНЫХ СТРУКТУР

Курбанова Рахима Абдуллаевна

Преподаватель кафедры языков Самаркандского государственного медицинского университета

Аннотация. Поскольку синтаксис и семантика гипотактических устройств отличаются от паратактических устройств, предикативный знак гипотактического устройства принципиально отличается от предикативных знаков паратактических устройств. Основная причина этого состоит в том, что взаимосвязь компонентов в этом типе сложного синтаксического аппарата требует отношения зависимости.

Ключевые слова: предложение, предложение, суждение, пресуппозиция, слово, язык, речь, языковые и речевые единицы, тема-rema, структурные, семантические и прагматические факторы.

DERIVATION OF HYPOTACTIC DEVICES AND THEIR
MONOPROPOSITIONAL STRUCTURES

Kurbanova Rakhima Abdullayevna

Teacher of the Department Languages of Samarkand State Medical University

Abstract. Since the syntax and semantics of hypotactic devices are different from paratactic devices, the predicative sign of hypotactic device is fundamentally different from



2-TOM, 2-SON

